

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi

*Hamid Olimjon va
Zulfiya
nomidagi
G‘od maktabi*

**o‘quvchilarining ijodidan
namunalar**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2024

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(50')

K 25

Loyiha rahbari

Hilola Umarova

Karim, S.

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi [Matn]: to'plam / S. Karim [va boshq.]; muharrir S. Nazarov./ She'rlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 128 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalarida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(50')

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy

ISBN 978-9910-9138-6-0

uyi, 2024



Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak.

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



HAMID OLIMJON VA
ZULFIYA NOMIDAGI
ijod maktabi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
tashabbuslari bilan yosh avlodni
vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga
vorislik ruhida tarbiyalash,
zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda
badiiy adabiyot va boshqa ijod
sohalarida jahondagi tengdoshlari
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor
shaxsni shakllantirish maqsadida
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi
ijod maktabi nomidagi ijod maktabi
tashkil etilgan.



Sirojiddin Karim

Hamid Olimjon va Zulfiya
nomidagi ijod maktabi “Ijod
gulshani” to‘garagi rahbari,
Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YO‘Q

Gulim sendagi chiroy quyoshda yo‘q, oyda yo‘q,
Sendagi bor quvnoqlik daryoda yo‘q, soyda yo‘q.

Bu dunyoda borliging men uchun katta boylik,
Mendagi bor bu boylik hech qaysi bir boyda yo‘q.

Ko‘zlaring misli ohu, qoshlaringdir qayrilma,
Bundayin qayrilmalik kamonda yo‘q, yoyda
yo‘q.

Qaynoq sevgim kechalar qochiradi uyqumni,

Bunday xislat hattoki qahvada yo‘q, choyda yo‘q.

Vaslingga men yetolmay, yo‘llaringda xor
bo‘ldim,
Bilsang bundayin xorlik tuproqda yo‘q, loyda
yo‘q.

Yonaman men, kuyaman, dilga alam tuyaman,
Shunchalik yonishimdan nahot hech bir foyda
yo‘q.

O, gulim, mendan o‘tar oshiqni izlab yurma,
Sirojday telba oshiq hech qayda, hech joyda yo‘q.

TASANNO

Men she’rlar bitardim senga bag‘ishlab,
Sen esa aytarding menga tasanno.
Bir umr sen uchun she’r yozmoqchiydim,
Ming afsus, yonimda qolmading illo.

Parvo ham qilmasdan ayrilding mendan,
Balki, o‘zga bilan murodga yetding.

Menga hammasidan alam qilgani
Eng yaxshi she'rimni o'qimay ketding.

BO'LIBDI

Husningga yetti iqlim hayratda lol bo'libdi,
Bo'sa olsang, gullarning yuzlari bol bo'libdi.

Kunning eng yorug'ligi yuzingni makon aylab,
Tunning go'zalliklari yuzingga xol bo'libdi.

Yulduz ko'zing kuzatib, munajjimga aylandim,
Munajjimlik aytdiki, ayriliq fol bo'libdi.

Seni bir kun ko'rmasa, to'lin oy ham ozarkan,
Men aqldan ozmog'im tabiiy hol bo'libdi.

Senga qanchadan qancha shahzodalar yetmagan,
Siroj senga yetmog'i amrimahol bo'libdi.

TOG'LAR

Hech yodimdan chiqarolmayman,
Toqqa chiqqan edik sen bilan.

Hozirda sen yonimda yo‘qsan,
Tog‘lar esa hanuz men bilan.

Orzularim g‘arq bo‘lib ketdi,
Armon degan dengiz qa‘riga.
Xayollarim ketolmay qolgan
O‘sha tog‘dan o‘tib nariga.

Orzularning qanotlarida
Chiqar edik tog‘larga olg‘ir.
Og‘irmasdi cho‘qqi zabit etish,
Endi toqqa qarash ham og‘ir.

Doim seni eslatar tog‘lar,
Har boqqanda ezilar yurak.
Endi seni unutish uchun
Shu tog‘larni qulatish kerak!

QO‘SHNIMNING TOVUQLARI

Qo‘shnim biroz beparvo,
Hech kim bilan ishi yo‘q.
Maslahat bersa kimir,
Eshitishga hushi yo‘q.

Yana tovuqlarin ham
Qo‘yvoradi har yonga.
Tovuqlari ham darrov
O‘tishar biz tomonga.

O‘tganidan ne bo‘lsa,
Darrov cho‘qiy boshlaydi.
Tomorqamni birpasda
Payhon qilib tashlaydi.

Mehnatimning qadrini
Qo‘shnim sira bilmaydi.
Tovuqlarga qarang deb,
Aytganim kor qilmaydi.

Tomorqamga qarasam,
Xo‘rliklarim keladi.
Qo‘shnimning tovuqlarin
Nima qilsam bo‘ladi?

Shayton der “tovuqlarga
Zahar, ber qutulasan”.
Rahmon deydi “o‘ldirsang,
G‘alvaga tutilasan”.

Rahmon to‘g‘ri aytadi,
Ne bo‘lsa ham yon qo‘shnim.
Yaxshi-yomon kunimga
Yaraydigan jon qo‘shnim.

Qo‘shnimning tovuqlari
Meni ko‘p xunob qildi.
O‘ylab-o‘ylab miyamga
Yaxshi bir fikr keldi.

Ikki tuxum sotvolib,
Olib bordim qo‘shnimga.
Ohista gap boshladim
Gapirganday inimga.

Dedim “tovuqlaringiz
Biz tomonga o‘tibdi.
Tomorqamga ikkita
Tuxum qo‘yib ketibdi.

Bu tuxumlar sizniki,
Mana oling qo‘shnijon”.
Qo‘shnim dedi uyalib,
“Xijolat bo‘ldim yomon”.

Yana dedi “siz oling,
Ikkita tuxum nima.
Tovug‘im o‘tganiga
Mendan sizga jarima”

Qilgan ishimga qo‘shnim
Ming bora aytdi rahmat.
Yuzlaridan bilindi
Rosa bo‘ldi xijolat.

Yumshoq bo‘lib gapirdim,
Zarda qilib qaytmadim.
“Tovuqlarga qarang” deb,
Bir og‘iz ham aytmadim.

O‘zgarib qoldi qo‘shnim,
Endi hushyor tun-u kun.
Tovuqlarga qaraydi.
Tuxumni asrash uchun.

Shu-shu qo‘shnim tovug‘i
Biz tomonga o‘tmadi.
Muhimi tovuqni deb,
Oqibat darz ketmadi.

O‘ZBEKISTON

Bobom aytdi jannatda
Mevalar ko‘p bo‘larkan.
To‘rt tomondan tip-tiniq
Suвлar oqib kelarkan.

Har tomoni chamanzor,
Toza ekan havosi.
Bog‘larida yangrarmish
Qushlarining navosi.

Neki ezgulik bo‘lsa,
Barchasi jam bo‘larkan.
Jannatdagi odamlar
Shod-u xurram bo‘larkan.

Bizning yurtimizda ham
Mevalar ko‘p bo‘ladi.
Har tarafdan tip-tiniq
Suвлar oqib keladi.

Havosi ham top-toza,
Har tomoni chamanzor.

Bu o‘lkada qushlar ham
Sayrashadi baxtiyor.

Odamlari baxtiyor,
Farishtaga o‘xshaydi.
Bu yurtda dunyodagi
Eng baxtlilar yashaydi.

G‘am-alam yo‘q bu yurtda,
Odamlarin ko‘ngli to‘q.
Demak, O‘zbekistonning
Jannatdan hech farqi yo‘q.





Iroda Abdurashidova

Hamid Olimjon va Zulfiya nomli
ijod maktabi o‘qituvchisi

“ASRNI QARITGAN KUN” (Chingiz Aytmatovning romanini o‘qib...)

“Asrni qaritgan kun” titratdi meni,
Jon-u jahonimdan otilar nido.
Sizga peshvoz chiqdi o‘ylasam neni,
Hech vaqt o‘zligimdan bo‘lmayin judo.

Ko‘kda oh chekadi Ona ro‘moli:
“Jo‘lomon otingdir, Do‘nonboy – otang!!!”
Lekin oyda kezar Manqurt xayoli
Jungjang, kechirilmas sening bu xatong.

Mahrum etish mumkin insonni yerdan,
Mol-dunyo, do'st-u yor hatto yashashdan.
Hayvon mehri ortiq yuz manqurt erdan,
Haq aytar: “Bandam, qayt tezda bu shashtdan”.

Alloh qudratiga zo'rlogin qilib,
Davr surgan qattol jazosin olar.
“Sobit, sen manqurtsan, o'zliging tilib
Otdingmi?!” – Edigey o'yiga tolar.

O'tmishing xotirlab, yuksaltir o'zing,
Maqsadli qanot ber bugun imkonga.
Zamon “jungjang”larin titratsin so'zing,
Komil avlod kerak O'zbekistoniga!





**Zarifa
Mardiyeva**

11-sinf o‘quvchisi

DARYO KABI

(Hamid Olimjon tilidan)

“Daryo kabi uyg‘oq o‘turman”,
Izim o‘chmas yorug‘ jahondan.
Qalamimning davomchilari
Nomim kuylar madh etib jondan.

Har bahorning o‘rik gulida
Rasmim chizar nafis tabiat.
Shunday yoshlar menga davomchi,
Qalbim sira chekmas aziyat.

“Vodiylarni yayov kezganda”,
Hislarimni jo qilur dilga.
Odamlarga so‘zlab hikoya,
Moziy tomon chiqadi yo‘lga.

Yurak topsa o‘z bahorini,
She’r zavqiga ko‘madi o‘zni.
Yuragiga ishq bo‘lib mehmon,
Yomonlikka yumadi ko‘zni.

Qalbda hijron, qo‘lda soz ila
Bizning kuyni etishar davom.
Kuychi yurak urarkan toki
Barhayotdir “SHOIR” degan nom!

BAXT MANZILI

Maqsadlarim uchqur, tulpor misoli,
Ulardan sarasin safarga saylay.
Hamrohlikka o‘tkir qalamim olib,
Eng oliv so‘zlarni ash’orim aylay.

Bir go‘zal manzilni mo‘ljalga oldim,
“Susambil” oldida ip esholmaydi.

Tafakkur quyoshi porlaydi unda,
Gullar iforidan shamollar – daydi.

Lekin bu go‘shada yo‘q atirgullar,
Men sevgan moychechak gullar sarasi.
Uning tikoni yo‘q ozor berguvchi,
Ko‘rgan odamlarning kelar havasi.

Menga tanish dengiz o‘sha manzilda,
U menga o‘xshaydi sokin, dam aksi.
Bulbul xonishidan gulga mubtalo,
Ko‘zni quvontirar kapalak raqsi.

Ul maskan bir mening dunyoyim bo‘lar,
Baxillikka yo‘ymang, kiritay qo‘lga.
Endi bu maqsaddan qaytarolmaysiz,
Baxt manzili tomon otlandim yo‘lga.

YURAK

Sening davring keldi, o‘ynoqi yurak,
Kuyla jo‘shqinliging tarannum etib.
Ishingdan bu dillar o‘yinga tushsin,
Garchi g‘amlar ketsin tez unutilib.

Tahsinlar aytsinlar, chalsin olqishlar,
Atrofga qaragin, yaqin bahor ham.
Ochilgan ilk chechak faqat sen bo‘lgin,
Sendan bezak olsin, hattoki olam.

Lekin unutmaki, gul bo‘lar xazon,
Sen ham to‘xtagaysan o‘shanday bir hol.
Tangrining izmida ekan qismating,
Xazon chog‘i kelmay, rostin kuylab ol.

MENI YO‘QLAB KELDINGMI, BAHOR?

Kumush qorlar tegib jonioqga,
Hech kim kelmay qolib yonimqa.
Rosa qilib meni intizor,
Meni yo‘qlab keldingmi, bahor?

Qolib ketib yakka-yu yolg‘iz,
Qalbim bo‘lib ketganida muz.
Eritguvchi bo‘lding-ku ilk bor,
Meni yo‘qlab keldingmi, bahor?

Kulgu olsam yuzlarimga goh,
Chechak ochib tashlaysan nigoh.
Shodliklarga o‘zing bo‘lib yor,
Meni yo‘qlab keldingmi, bahor?

Go‘zallikka burkanib olam,
Yorishganda mening ko‘nglim ham.
Bildim kurtak qilganda izhor,
Meni yo‘qlab kelibsan, bahor.





**Mashhura
Umaraliyeva**
10-sinf o‘quvchisi

SHUKRONALIK

Tun ko‘rsatar bizga kunning qadrini,
Sezdiradi bulut quyosh himmatin.
Ezgulik yodlanar yomonlik chog‘i,
Nopoklik oshirar pokning qiymatin.

Allohim yaratgan inkori bilan,
Dunyodagi barcha ezgu xislatni.
O‘rgatar yomonlik yaxshilik uchun
Shukrona qilmoqqa insoniyatni!

MITTI BIR MALAK

Qurtning ko‘rinishi chiroyli emas,
Ammo ko‘rkam bo‘lar kapalak bo‘lsa.
Istaydi bir kunlik go‘zal umrini
Gullar ichra uchib, go‘zalroq qilsa.

Hayotin oxiri quvonchli edi,
Zahmatli paytlari bo‘ldi unut ham...
Endi udir ko‘kda uchib yurguvchi
Bu dunyodan mamnun mitti bir sanam!

O‘ylashimcha, shu bir jihat bilan
Odamga o‘xshaydi go‘yo kapalak.
Chunki insonga ham mashaqqatdan so‘ng
Chiroyli yakun va biroz baxt kerak.

Asli inson zoti qarilik uchun
Yillar mobaynida yig‘adi hurmat.
Keksalik davrida e’zoz ko‘rishi –
Butun bir umriga tatiydigan baxt!

YONARQURT

Agarda tun bo‘lмаганіда
Yонарқуртні білмас еділар.
Ко‘рганіда һаяронлар bo‘lib
Zavq, shavq ila kulmas edilar.

Ammo kecha har doimo bor,
Yонарқуртнін quvnashi uchun.
Har kimning ham yayrashiga vaqt
Yaratilib yaralgan ochun..

Xuddi shunday har maxluqotga
Kashf etilgan baxtli pallalar.
Lek yonarqurt shod payti bo‘lmas,
Gar uxlasa tinglab allalar!..

SHOIR

Ilhom taqsillatsa yurak eshigin,
Do‘stim, yuragingdan haydama uni.
Agar kirgizmasang qalb hamxonangga,
Keyin qiynalasan, to‘lolmay xunin.

Mayli, vaqting ziqidir, ammo unutma,
Ilhom kelganida vaqt top – shoirsan.
Shoir bo‘lmoqlikni istabsan endi,
Yuraging tilmoqqa, afsus, Majbursan.

Alloh yuqtiribdi senga iste’dod,
O‘ylama, shoirlik aslo oson deb.
Shoirdan telbaroq inson yo‘q asli,
Shoirdek avliyo tug‘ilmas hadeb.

Agar kasal bo‘lsa, davosi ham she’r
Lek she’r uni qilgan xastayi bemor.
She’r yozsa, yuragi topajak taskin,
She’r yozsa, yuragi topadi ozor.

Shoir – shunday TELBA, shunday AVLIOY,
U – haqiqiy DONISH, ammo yarim jon...
Qalbidagi o‘tga yuragin yoqib,
She’rlar yozajakdir, o‘zga beomon.

AYOL

Ey ayol,
Porloq ko‘zingdan nur o‘g‘irlab yulduz,
Aybiga iqroran aytmasdan hech so‘z.
Osmon-u falakni aylabon makon,
Uyatdan tushmagay ko‘kda u hanuz.

Ey ayol,
Ko‘nglingni yaratgan pok qilib Alloh,
Sofliging o‘g‘irlab, qilgan suv gunoh.
Endi u nopokni pok qilmoq uchun
Nopok bo‘lganiga bo‘lganmiz guvoh.

Ey ayol,
Sendan o‘g‘irlagan sabrni ham tosh,
Endi u tepkiga bermoqda bardosh.
Qiynalar armonin ko‘mar qalbiga,
Ko‘z yoshin ko‘rsatmas, to‘kmas aslo yosh.

Ey ayol,
Alloh sochmish olam yaratgan mahal
Xislating dunyoga oh, qanday go‘zal.
Shoirlar ilhomni o‘zingsan ayol,
Faqat sen haqingda ming-minglab g‘azal.



**Mohira
Diniqulova**
10-sinf o‘quvchisi

ZULFIYAM
(Hamid Olimjon tilidan)

Oh, mening go‘zal va lobar Zulfiyam,
Hali ham xayollar domidamisan?
Hayot meni sendan ayirganda ham,
Hanuz sokin qabrim yonidamisan?

Nega bu kun jayron ko‘zlariningda yosh?
Axir yoningda-ku Hulkar, Omoning.
Sen kul, olamlarda porlasin quyosh.
Bilaman, pokiza sening iymoning.

Endi senga gullar tuta olmayman,
Ma'sumsan, oq ro'mol bu kun boshingda.
Yig'lasang, qabrimda tinch yotolmayman,
Zulfiyam, so'limagin gulgun yoshingda.

Xayr, endi mahsharga ketishim kerak,
Zulfiyam, bardoshli, matonatli bo'l.
Omon va Hulkarim sen uchun tirkak,
Seni kutmoqdadir saodatli yo'l.

HAZIL SHE'R

Ko'zlarimda achchiq hasrat, achchiq damlar,
Mehnatimga yarashasi shu edimi?
Yuzlarimni siypalaydi shaffof namlar,
Menga birov bu tashvishni qil dedimi?
Qilmasam ham bo'lmas juda kerak, zarur,
Kunidamas kunda ko'zim yoshlasa ham.
Ko'z yoshimga tovon so'rab bir kun mag'rur,
Pichoq olib sharutta sanchsam... Bu unga kam.
Yig'latmadi, meni do'st-u yorlarim hech,
Yig'latmadi bu turmushda araz-u noz.
Meni har kun yig'latadi faqatgina,
Oddiygina ro'zg'orimda oddiy piyoz.



**Odina
Erkinova**
8-sinf o‘quvchisi

DENGIZ...

Ba’zida hech narsa ko‘nglimga sig‘mas,
Yerlarni lahza tark etgim keladi.
Odatiy hayotning izidan chiqmas,
Yerlarni lahza tark etgim keladi.

Otlangim keladi dengizga tomon,
Go‘yo yuragimdan ko‘ra yaqinroq.
Men sog‘ingan to‘lqin ko‘rmay hech qachon...
Tutqunlik chizig‘in chizmagan qirg‘oq...

Oftob bo‘lib sharqdan ko‘tarsaydim bosh,
Nur bo‘lib o‘zimni dengizga otsam.

Quyosh bo‘lib qolsam, qip-qizil quyosh,
Dengizdan chiqib so‘ng dengizga botsam.

Hech yo‘qsa, sohilni etsaydim makon,
Moviy, shaffofligi ko‘ngil talabi.
Qalbimdan gardlarim yuvsayding shu on,
Bag‘ringdan quqlarni yuvganing kabi.

YURAGINGGA YOZOLMADIMMI?!

Sahro bo‘ldim qumga yozdim she’r,
Daryo bo‘ldim suvgaga yozdim she’r.
Osmonlarga, yerga yozdim she’r,
Yuragingga yozolmadimmi?!

Baland tog‘lar toshlari haqqi,
Qaldirg‘ochdek qoshlaring haqqi.
Ko‘zlarimning yoshlari haqqi,
Yuragingga yozolmadimmi?!

Buyoqda kuz, yastangan barglar,
Dardlarimga dard qo‘shar battar.
Manziliga bormagan xatlar,

(Yo sen atay olmagan xatlar)
Yuragingga yozolmadimmi?!

Senga yozgan hamma she'rimni,
Kitob qilib tuzaman bir kun.
Ishonaver butun umrimni,
Yuragingga yozaman bir kun!

MEN SHUNAQQA KULIB YASHAYMAN

Quyoshdag'i nurdek sochilib,
Bahordagi guldek ochilib,
G'am-anduhni dildan o'chirib,
Men shunaqa kulib yashayman!

Hayotimga baxtni tuydirib,
Yaqinlarim dildan suydirib,
Dushmanlarim ichin kuydirib,
Men shunaqa kulib yashayman!

G'iybatchilar qilsalar ig'vo,
Gap-so'zlarga qilmayin parvo.
Ko'zyoshimga arzimas dunyo,
Men shunaqa kulib yashayman!

Yashnataman ko‘ngil dilxonam,
Quvonchimdan lol qolsin olam.
Yarashadi menga juda ham,
Men shunaqa kulib yashayman!

O‘ZBEKISTON YOSHLARI

Yurakda jasorat, mardlik shiori,
Shu yurtning tayanchi, yurt iftixori,
Qaddini tik tutar o‘zbekcha ori,
Bizlar hur vatanning baxtli yoshlari.

Hech ishda bermaymiz marrani qo‘ldan,
Serquyosh o‘lkaning biz quyoshlari.
Qo‘rmagaymiz aslo yomg‘ir-u do‘ldan,
Bizlar hur vatanning baxtli yoshlari.

Ajdodlar ruhiga qanot bo‘lamiz,
Sharafli xotiri obod qilamiz,
Ularga munosib avlod bo‘lamiz,
Bizlar hur vatanning baxtli yoshlari.



Gulyora
Jamolova
10-sinf o‘quvchisi

ALISHER NAVOIY

Navoiy ijodi taratgan yog‘du,
Besh asr o‘tsa ham, hamon so‘nmadi.
She’riyat me’mori – bu ulug‘ zotning,
Avlodlar qalbida yodi o‘lmadi.

Zavq topa olmadim Pushkinni o‘qib,
Navoiy baytidek seva olmadim.
Tolstoy, Bayrondan keltirdilar, lek
Hech biri “Xamsa”dek hayrat solmadi.

Farhodlar kelarmi dunyoga takror?!
Meni qiynayverar shunday savollar.

Tunlari yetaklab ketar Hirotga,
Sizga talpinguvchi oydin xayollar.

Shunda katta orzum ro‘yob bo‘lardi,
Suhbatingiz tinglab orom topsa jon.
Ijod nihollari tashnadek sizga,
She’riyat bog‘ini yaratgan bog‘bon.

YUKSALISH

Bugun zamon talabi shu:
Faqat yaxshi o‘qish kerak.
O‘z ustida ishlab inson,
O‘qiganin uqish kerak...

Dunyolarcha orzu qiling,
Maqsadlarni qo‘ying qator.
Harakatdan to‘xtamang hech,
Tunlaringiz o‘tsin bedor!

Natijaga erishmasdan,
Taslim bo‘lmoq yaxshi emas!
Yiqilmaslik uchun, do‘stim,
Shijoatli bo‘lsangiz bas!



*Farangiz
Abdusalomova*

10-sinf o‘quvchisi

AXIR MEN O‘SHA ...

Ba’zida xayollar olib ketadi,
Men jondan sevganim dengiz yoniga.
Qalbga tuyg‘ularni solib ketadi,
Meni chulg‘ab olar sohil domiga.

Dengizga aylanar qarog‘im balki,
Va yoki o‘ylarim qiladi ado.
Yurakkinam urib turarkan toki
Dengizim o‘zingsan dardimga davo.

Eh-he, seni deya kechdim nelardan,
G‘amlar unutilar senga yetgan on.

Seni qizg‘onmadim aytgin, kimlardan?
Malhamsan qalbimga, tabibim hamon.

Uzoqqa termulib o‘yladim bugun,
Berilib qandaydir ta’rifsiz hisga...
O‘zi dengiz o‘yi qaylardan kelgan,
Daryolarni hech ham ko‘rmagan qizga?..

Xayolda dengizga yaqinlashdimki,
Qiziqib u meni ayladi so‘roq:
– O‘zi sen kimsan-ey, angladimmi yo –
Qalbi dengizlarga oshiq qizaloq?

Ha, ha...Adashmading, axir men o‘sha,
O‘zicha yerda-yu samoda tengsiz!
Sira adashmading, axir men o‘sha,
Sohilini topa olmagan dengiz!





**Shahina
Ro'ziyeva**
10-sinf o'quvchisi

BAXTGA MAKTUB

Charaqlagin, nur sochgın maylı,
Mening zulmat dunyoym ichra.
Yo'lim ko'rsat, ne qilarim ham
Ushalmagan ro'yoyim ichra.

Achchiq-achchiq yig'laganimda
Ko'z yoshim bo'l yuzimni o'pgan.
Kiprigim bo'l har yumilganda
Mehr ila ko'zimni o'pgan.

Sen shu'la bo'l, men ham ortingdan
Topib olay hayotim nurin.

Dehqon bo‘lgin, men esa bo‘lay,
Ishlagandan topgan huzurin.

Kel, ikkimiz birga bo‘lamiz,
Va birmamiz har dam, umrbod.
Dardlarni ham quvonchga yoyib,
Ko‘ngil uyim sen ila obod.

VAQT QADRI

Raqamlarni ezib vaqtim beomon,
Eng ulug‘ tulpor u, unda buyuk shon.
Eng katta boylar ham minolmas uni,
Juda qimmat bo‘lar soniya, har on.
Bilmam, shoshqaloq u, qilmaydi toqat,
Unda odimlaydi har bitta fursat.
Balki shoshmas edi, ammo xayolda
“Odamlar qadrimni bilsin” der faqat.
Mayli, vaqt tekindir, lek tejang uni,
Birdan tugab qolar unutmang shuni.
Bilib oling, o‘rtoq, albatta, vaqtning
Javobi ham bordir Qiyomat kuni.



Nafisa
Ahrorova

10-sinf o‘quvchisi

DO‘ST

(Erkin Vohidovning

“Do‘st bilan obod uying...” she’riga nazira)

“Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham.
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham”.

Daraxt tomir bilan tirik,
Do‘sti bilan odamzod
Yor tutinsang devonaga,
Boy bo‘lur devona ham.

Yaxshi do'stlar sonin orttir,
Do'sting yuz ming bo'lsa oz.
Chin do'stlarni maqtay desang,
Ta'rifga yetmas qog'oz.

Ezgu niyatli do'st ila,
Yetib yasharsan murodga.
Mehr qo'lin tutqazsang gar,
Do'st bo'lur begona ham!





**Mavjuda
Irsaliyeva**
10-sinf o‘quvchisi

NON – ULUG‘ NE’MAT

Bir kuni vaziri bilan Ulug‘bek,
Otda ketar emish madrasa tomon.
Ozgina yurganda uning oldidan,
Chiqib qolibdi-ku kaftdekgina non.

Shunda darrov otdan tushib Ulug‘bek,
Nonni qo‘lga olib ko‘zga suribdi,
“Kim qildi bu ishni?” – deya o‘rnidan
G‘azab bilan nonni olib turibdi.

Vaziri qaltirab, shohiga debdi:
Shohim, buyursangiz bo‘lardi menga,
O‘zim olardim-ku shu burda nonni.
Ovora bo‘ldingiz, tushdingiz nega?

– Bu nonni birinchi ko‘rdim men o‘zim,
Nega olishingni buyuray senga?
Axir shu non bilan bordir har so‘zim.
Bu non podshohlikdan, ulug‘roq menga.





**Marjona
Eshboyeva**

10-sinf o‘quvchisi

JAZO

O‘tmishingning siniq oynasi
Xotirangning qumi ostidan
Bo‘rtib chiqar bir kuni, albat,
O‘chin olar gunoh qasidian.

Gustohliging oldida kuygan
Tabiatning sof parchalari.
Endi o‘zin qayta yig‘olmas,
Behol qaqshar, zor kechalari.

Seni suyib, poklikda raso
Injularin tuhfa etgan soy.

Ariqlarda kula olmaydi,
Bulutidan tushmas, hoynahoy.

Vujudingni ko‘tarib turgan
Shu samoning cheksiz qatlari.
O‘z hidiga o‘zi bo‘g‘ilib,
Sun’iy lashib borar kun sari.

Xiralashar ko‘hna jilolar,
Siym-u zarday topilgan tuproq.
Yaxshilikka yomonlik talab
Avlodlar-chun bo‘ldi u nopok.

Senga yupanch bo‘lay, boshpana
Deb bag‘rini kestirgan daraxt.
Umri so‘ngan qardoshlarining
Sanog‘iga yetolmay karaxt.

Isrof va nafs tagida bir kun
Bu ishongan tog‘laring qular.
O‘ylamasdan qilgan gunohing
Badalini farzandlar to‘lar!

URUSHDAGI BOLALIK

Yuzlaringni yuvadi qonlar,
Azoblidir – begunoh, bebosha.
Ko‘zlaringga tikilgan onlar,
Aytgil, nega men to‘kmadim yosh?
Qorachig‘ing iskanjasida
Kulib turib, yig‘laydi o‘lim.
So‘yla, ajib bu dudoqlaring
Pirpiraydi, topolmas tinim.
Qoshlaringda qaldirg‘och daydib,
Xo‘b izlaydi ona yerini.
Lablaring ham pichirlar unsiz,
Jo‘r qilolmas ozod kuyini...
Erksizlikda yaralgan bu dard,
Oromsizlik kishanlarida.
Aybing ne, nafis ma’sumiyat?
Maqsadsizlik nishonlarida.
Yetar shuncha urush bo‘lgani,
O‘ylab ko‘ring ozgina teran.
Uyaling-da olov yoqqani,
Zavol topgan bolalik bilan!



**Shohsanam
Abduazimova**
9-sinf o‘quvchisi

ZULFIYA MONOLOGI

Ufqdan oftob zo‘rg‘a ko‘tarmoqda bosh,
Menimcha, uyquga to‘ymagan chog‘i.
Sening yo‘qligingga berolmay bardosh,
Tobora avjlanar hasrat o‘chog‘i.

Derazadan boqib bir tup o‘rikka,
Yuragimga nedir tig‘dek qadaldi.
Ko‘klam nafasi-la ochilgan gullar,
Xazon sepin yoygan kuzga ataldi.

Endi she'r yozmoqdan bosh tortar qalam,
Endi bu hislardan ko'ngil yiroqda.
Hayot so'qmog'iga qo'yilgan qadam,
Qismat sinovidan ikkilanmoqda.

Sensizlik men uchun oy chiqmagan tun,
Koshki, o'zing kelib yog'du sochsayding.
Sen-la o'tgan damlar bermas menga tin,
Xayollarimni ham olib ketsayding.

Ketma, ortingga qayt, yengilsin o'lim,
Meni yana yongan olovga otma.
Taqdir tutashtirdi sen bilan yo'lim,
Qalbim sen-la abad yashaydi! Nuqta!





**Shaydo
Ergasheva**
8-sinf o‘quvchisi

ICHINGDA...

Bu yerda gap-so‘zga chek qo‘yilmaydi,
G‘iybatlar dillarni qiladilar cho‘g‘.
Qulqoni berkitish chora bo‘lmaydi,
Ko‘z yoshing to‘kilar o‘zga chora yo‘q...
Nogoh xayollarga berasan qanot,
Hislarga erkinlik berasan, ammo...
Barcha orzularing qilishar barbod,
O‘ylaysan... qildimmi katta bir xato...
Har bir qadamingni shubhaga yo‘yar ,
Birma-bir sanashar: “Yurishi qanday?!”
Atayin chalg‘itib tuzoqlar qo‘yar,
Qalbing jarohati sovuq bir qonday...

Kishanlarni qachon yechasan o‘zi?!
Tuproqqa ko‘masan dardlarni qachon?
Mehrli ko‘zlarining – qalbingni ko‘zi,
Orzular jarlikda yotar chalajon..

BAXT KUYCHISI...

(*Zulfiya tilidan*)

Hayot, nigohlarining ayama mendan,
Yuzlarimga oqqan ko‘z yoshim haqqi,
Yurakdagiga achchiq dardlarim tuyma ,
Shoирга atalmish shu sevgim haqqi.
Qaragin, shu aziz so‘qmoqlarda u,
Shodlik va baxt kuyin qilmoqda darak.
Azim mag‘rur Jizzax iftixori u,
Boshin egib, asta qilmoqda sarak.
O‘rik gullaridan menga xabar ber,
Men ham iforidan bo‘lay bahramand.
Muhabbat elchisi, kuylaymi senga,
Olislardan mehrling bilan ber madad.
Seni bilgan barcha insonlarga sen,
Uzoq-uzoqlardan bo‘lgin g‘urur-shon.
Ular ham intilib dalalarga keng,
Desin: Baxt kuychisi – Hamid Olimjon!



Pokiza
Erkinova
8-sinf o'quvchisi

QOG'oz VA QALAM

Oq qog'oz do'stim mening,
Lek, menimcha, men yomon.
Qalbimdagи so'zlar-la
Qoralab qo'yamam omon.

Bag'rini qaro qilar,
Do'stim qalamjon ila.
Qalam ham fido bo'lar,
Uzoq vaqt xizmat qila.

Qadrsizmas qalamim,
Qog'ozga dushman emas.

Bilaman mendan boshqa
O‘zganing g‘amin yemas.

Qalam varaq hasratin
Dengizday toshirguvchi.
O‘chirg‘ich ikkovlonning
Aybini yashirguvchi.

XXI ASR VABOSI

Hamma narsa texnikada bo‘lib ketdi,
Ba’zi birlar ilm-fandan qolib ketdi.
Miyalar ham chiqindiga to‘lib ketdi –
Bu qandayin vabo bo‘ldi, ahli inson?!

Internet ham ko‘rsatmoqda shiddat kuchin,
To‘g‘ri yo‘lda foydalanmas ko‘plar nechun?
O‘ylayversam, o‘ylarimga yo‘qdir yechim,
Bu qandayin vabo bo‘ldi, ahli inson?!

Nafs yo‘lida avj olmoqda bo‘htonchilik,
Tabassumi soxtalarni ko‘rdik, bildik.
Qadriyatlar yo‘qolmoqda ming-ming yillik,
Bu qandayin vabo bo‘ldi, ahli inson?!

LOLAQIZG‘ALDOQ

(*Muhammad Yusufning she’riga nazira*)

“Mendan nima qolar, ikki misra she’r,
Ikki sandiq kitob, bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan nima desa-der,
Men seni o’ylayman o’zimdan ko‘proq,
Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.
Sabrim chidolmadi, toqatim o‘ldi,
Endi menga sabr kerakdir ko‘proq.
Azroil kelmoqda, bag‘rim qon bo‘ldi,
Boshim aylanmoqda, xayolim o‘troq.
“Lola, lolajonim lolaqizg‘aldoq”.
Ilhom parisisan sen she’rim uchun,
Lekin yozolmadim qo‘limda titroq.
Endi bilmoxdaman yolg‘izlik kuchin.
Menga uyim uzoq, yaqinroq tuproq.
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.
Endi mening umrim tugagan zamon,
Kelaqolgin gulim, dunyoga bir boq.
Yaxshi inson ko‘pmi, yo yomon inson,
Kimning fikri yomon, kimning dili oq?
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.

Mening darakchimdir ko‘kda turnalar,
Ularni ko‘rmayin o‘taman biroq,
Onamni asragin, bag‘ri tirnalar,
O‘ylamasin “Endi o‘g‘lim ham yiroq”.
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.
“Dadajonim qani?” – deganda qizim,
“Dadang ishda”, – deya unga kulib boq.
Uning oldida hech ko‘z yoshing tizim
Bo‘lmasin iltimos, g‘amlarga qo‘l qoq.
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.
Mana chanqab qoldim, o‘limdan darak,
Mayli, bu holimdan bo‘limagin ogoh.
Lekin men ketganda bo‘lmasa darak,
Ruhim kelib turar uyimga goh-goh.
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq”.
Qabrimning ustini bezagin o‘zing,
Sen mendan qolar bir nom-nishon, bayroq
Lek meni eslasang, yoshlama ko‘zing.
Qabrimning tuprog‘i ko‘nglingday yumshoq.
“Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq...”



**Muqaddas
Oqbo'tayeva**
8-sinf o'quvchisi

KAMALAK

Qalbingni yomg'irlar qilsalar-da loy,
Umidlarining ko'kka sovursa shamol.
Maqsadingdan kechma o'tkinchi bari,
Yomonlikni qo'yib, yaxshilikni ol.

Nur qolib chekkada, yakka osmonga
Gar qora bulutlar bo'lsa ham malak.
Barcha yomg'irlardan so'ng ishon, shaksiz,
Osmonni egallar go'zal kamalak.

IQROR

“Dars qilay” deb o‘tirib,
Teleo‘yin o‘ynayman.
Nima qilay darslarni,
Bu o‘yindek suymayman.
Mendan xo‘b arazlashib,
Beshlarim qochib qoldi.
Daftarimdan juda ko‘p,
Ikkilar o‘rin oldi.
Tenglamani yechmasam,
Holimga voy bo‘ladi.
Ikkilarim raqs tushib,
Ustimdan xo‘b kuladi.
Ona tilin bilmasam,
Hafa bo‘lgandek onam.
Fanlarni chetga surib,
Chetda qoldim o‘zim ham.
O‘yinlarni bas qilib,
O‘ttizda ham bo‘lmay yosh.
Bilim, hunar egallab,
O’n beshimda bo‘lay bosh.

ONA...

Ona...

Bugun ko‘zlarimda tomchilagan yosh,
Yomg‘irdek yuzimda qoldirmoqda iz.
Senga bo‘lgan cheksiz hurmatim haqqi,
Sog‘inchim oldida cho‘kmoqdamан tiz.

Ona...

Balki yuzlarimda bordir tabassum,
Lek qalbim o‘rtanib chekmoqdadir oh.
Atrofda do‘stilarim bo‘lsalar-da ko‘p,
Qalbimning tubida bir o‘zing hamroh.

Ona...

Yulduzlar barchasi bo‘lsalar-da jam,
Sening ko‘zlariningdan nursiz baribir.
Go‘yoki yerdagi barcha chiroqlar
Bir quyosh o‘rnini bosa olmaslar.

Ona...

So‘zlariningdan tomgan asal-bollarni
Arilar o‘zi-chun qilibdur foyda
Sening yuzindagi yorug‘lik yo‘qdir,
Osmondagи tanho, ul yorqin oyda.

Ona...

Gohida o‘ylanib qolaman shaksiz,
Sening butun umring tortiqdir bizga.
Senga bag‘ishlov bu
She’rim arzirmi?
Kovushingdan qolgan shu bitta izga.

Ona...

Xizrning umri kabi yashagin har vaqt,
Doim sen-la bo‘lsin bahordagi is.
Vatanimdek asrab hamma vaqt, har dam,
Sening madhing uchun bo‘lay To‘maris!





Zarifa
Hakimova

8-sinf o‘quvchisi

ADIBLAR XIYOBONI

Adiblar bog‘iga boringiz bir bor,
Ko‘rinadi shonli, jilvakor o‘tmish.
Yod etib nomlarin har doim takror,
Go‘zalmasmi faxr hissini tuyish?

Suhbat qurar oydin kechada Cho‘lpon,
U bilan so‘zlashar eng yorug‘ yulduz.
Qo‘lida sham ushlab turar Qodiriy,
Kumushni yo‘qotib ko‘zida afsus.

“Xamsa”si biz bilan, Navoiy uyg‘oq,
Bog‘dagi xonishni Mavlono bildi.

Kapalakning do'sti lolaqizg'aldoq,
Muhammadni so'rab yonimga keldi.

Bir chetda kuldirib, qurib chordana,
Said Ahmad turar latifa so'ylab.
Vodiylarni shoir yayov kezganda,
Faqat o'tar baxt va shodlikni kuylab.

Oliydir insonga, yurtga muhabbat,
Abdulla mehrni baland turgizdi.
Qo'shiq bo'lib tildan tushmagay albat,
Vatanning siymosin she'rga kirgizdi.

Sadoqat, vafodan bering bir misra,
Guldan chambar yasab zulfiga taqay.
Allalar Saida oy yuzli chehra,
Beg'ubor farzandin ko'ngliga qaray.

Adib O'tkir hayotdan aytib birovga,
Hoshiyadan chiqib, qo'ydi bitik – gul.
Yulduzli tunlarda chiqib yaylovga,
Orom olayotir bobom Pirimqul.

O'zbegim deb yonib tutganda qalam,
Qog'ozni ham yum-yum yig'latgan Erkin.
Uzoq Sibir torin chertganida ham,
Usmonim olamga taratdi uchqun.

Shum bolani qilgan yo'lda sargardon,
Yetimlik zahmatin chekibdi G'ulom.
Sariq devni minib otdi sho'x-xandon,
Xudoyberdi bobom, bolajon bobom.

Ba'zilar tirikdir, lek qoldirmas iz,
Boqiylikka boylik bo'lmaydi lozim.
Aytgum nomlarini eshitgan mahal,
Yo'q, ular hayotdir qalblarda doim.

JANNATDAN MAKTUB

(Erkin Vohidov nomidan)
monolog

O'limoldi chala tugagan she'rim
Aytgin, o'zing meni sog'inmadingmi?!

Baxsh etgandim senga vujudim, mehrim,
Nashriyotga borib uchramadingmi?!

O'n to'rtda bog'lanib hozir ham lekin,
Qo'yib yubormayman nomsiz ul qushni.
Oilam tushimga kiradi har kun,
Afsuski, hayotdek qilolmam tushni.

Gulchehram, o'zimning nur yuzliligim,
Ilhom pariyimsan axir, farishtam.
Jannatda "dangasa" bo'lib qoldimmi?
Qo'lim chiqib qoldi she'r yozmoqdan ham.

O'g'lim Xurshid mendan yolg'izgina iz,
Erkalab yur gulim, mendan keyin ham.
Sendan o'tinaman cho'kka tushib tiz,
Uyalmay aytolsin: "Shoirdir dadam".

Ko'rsatmadni bobo unvonin taqdir,
Nabiram tizzamga o'tqizolmadim.
Yaxshilik yo'lida bo'lib bir shoir,
Bog'imga bir nihol o'tqazolmadim.

Salom, ko'chasi keng, go'zal Farg'onam,
Endi kelolmayman oyda bir marta.
Ta'rifingni she'rga solmoqlik uchun.
Qog'oz bag'rin tildim qayta va qayta.

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi *Jod maktabi*

Umr so‘qmoqlarim bo‘lmadi qisqa,
Yetmish to‘qqiz yillab nima ish qildim?
Yetim bolalarga qilmabman ehson,
Axir kamina ham o‘sdi-ku yetim.

Meni hurmat qilib ulug‘ yurtboshim,
Nomimga ochibdi ijod maktabi.
She’rlarim yodlarkan o‘g‘lim, izdoshim,
Shoira qizlarim chiqar kitobi.

Xalqim bordir senga aytar so‘zlarim,
Yuksalish cho‘qqisin zabit et yuqori.
Gullab-yashnasa gar O‘zbekistonim,
Hadya qilar edim she’rlarim borin.

She’rim, sendan bitta so‘nggi iltimos,
Elitgin uyimga jannatdan maktub.
Yetolmam, fursatim misqol kabi oz,
Bu xatni bermog‘im qilmadi nasib.



**Kumush
Muhammadiyeva**
8-sinf o'quvchisi

BAHOR

Dillar ham yayradi ajib mehrdan,
Qishning qahratoni o'tdi shu bugun.
Go'zal bahorimning sochin silasam,
Baxtdan dilim yayrab ketdi shu bugun.
Agar his etsangiz bu shirin onni,
Yorib chiqajaksiz ko'ngil qafasin.
Gar tongni kutsangiz his etasiz siz,
Bahorning eng shirin, totli nafasin.
Bu qanday baxt axir go'zal faslning
Ko'z quvnab, chiroyin birga ko'ramiz.
Bahorning har bitta go'zalligini
Bahordan keyin ham eslab yuramiz.



Ozodaoy
Qosimova
9-sinf o‘quvchisi

GULLAGAN QALB

Har qadamda muzlagan izlar,
Izg‘irinda shovullar Volga.
Ismin o‘yib yozar qizaloq,
Eski ko‘prik nuragan polga.

Uni ko‘rmas hech bir odamzod,
O‘qiy bilmas yozgan so‘zini.
Izg‘irinda titrar qizaloq,
Ko‘ksin ushlab yumdi ko‘zini.

Chalindi tez yordam signali,
Qizning ko‘ksin yorib ko‘rishdi.

Shundan so‘ngra bahorni kutib,
Gullab turgan qalbni ko‘rishdi...

Ancha yillar o‘tdi bundan so‘ng,
Shiddat bilan oqadi Volga.
O‘z ismini o‘qib qoldi baxt
Eski ko‘prik nuragan polda.





**Dilshoda
Urakboyeva**
8-sinf o‘quvchisi

OTA

*(Sevinch Abdazovaning “Ota”
she’riga nazira)*

Ota, she’rlarimni dalalarga soch,
Ko‘nglimda qolmasin zarracha g‘ubor.
Matonat yo‘lini o‘z qalbingdan och,
Ezgulik ham yaqin, u she’rlarda bor.

Ota, qo‘llaringni duoga ko‘tar,
Faqat baxt tilagin jajji qizingga.

Bu dunyo o‘tkinchi, hayot ham o‘tar,
O‘zim iz bo‘laman nurli izingga.

Ota, she’rlarimda borliq mujassam,
Borliq, dunyo hatto bu koinot ham.
Quvonch bor, sog‘inch bor, yo‘q bunda alam,
She’rim ila to‘lsin paykallaring ham.

UMR BAHORI

Muhabbat asrining sog‘inch yillari
Umring bahorida qoldirmasin iz.
Rashkning gul yaproqli shamollariga
Inson tafakkuri qiladi ojiz.
Mayli, ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

Qalbim egasisan, eshigimni qoq,
Ko‘nglim ko‘zgusiga tashlagin nazar.
Bilaman, taqdirim ayrodir yiroq,
Xayolimda pinhon tuyg‘ular kezar.
Mayli, ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

Meni deb ko‘z yoshing to‘kmagin, biroq,
Quvonch bilan esla meni xotirjam.
Yuragim o‘rtanar, qo‘ygansan tuzoq,
Ko‘zlarim ko‘r edi qiladi alam.
Mayli, ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

Hijron kechalari falakka yetar,
Hattoki boshimga qilich kelsa ham.
So‘zlayman “sevar” deb o‘zga yonida,
Oppoq qog‘oz bo‘ylab tebratib qalam.
Mayli, ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

Pushtirang bulutlar orasin kezib,
Yuraman orzular qo‘lini tutib.
Vujudim yonmoqda hislarim pinhon,
Dilim izhor ila kelishing kutib.
Mayli, ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

Qissamizni yoyib butun jahonga,
Ertak kabi so‘zlay, bo‘layin Layli.

Muhabbatning go‘zal, gavhar donasin
O‘g‘irlagan telba desinlar mayli.
Mayli ko‘zlaringga bo‘layin tutqun,
Nurim, tushlaringga kirayin bugun.

SEN YETIM EMASSAN

(*G‘ofur G‘ulomning “Sen yetim emassan”*
she‘riga nazira)

“Sen yetim emassan, uxla jigarim”,
Quyosh mehribondir, Vataning – onang.
Istaging aylanar, topar ro‘yobin,
Cho‘chima, jigarim, urushda otang.

Vatanin tinchligin o‘ylaydi har dam,
O‘zbegim mardlari ko‘ksini kerib.
Mehnatin nonini ko‘rmoqlik uchun
Shahid bo‘lmoqdalar jonini berib.

Ulug‘ jangning kuni bexatar bo‘lmas,
Otang o‘lgan bo‘lsa, qayg‘urma, qo‘zim.
Yig‘lama, o‘ksinma olaver nafas,
Qarayman, minnatsiz erkalab o‘zim.

Yetimlik nimadir sen mendan so‘ra?
Voy, bechora jonim, desam bo‘lgulik.
Boshimni silashga qo‘l edi darkor,
Bir og‘iz shirin so‘z odam qilgulik.

Onangning murdasi ko‘zing o‘ngida
Sen yetim qoldingmi, otang o‘ldimi?
Yovvoyi mahluqlar, qonxo‘r vahshiyalar,
Sen yetim qoldingmi, onang o‘ldimi?

Uxlagin, jigarim, oromingni ol,
Hayoting quvonchga tezda to‘ladi.
Peshonangda porlar toleying—quyosh,
G‘unchadek tabassum muhr bo‘ladi.





*Jaloliddin
Abdug'aniyev*
8-sinf o‘quvchisi

UMR

Anglolmadim bu dunyo ishin,
Bosib o‘tdim necha yoz-qishin,
Sezmay qoldim, umr o‘tishin,
Nahot, hayot tugab bormoqda,
Qaysar umr baxtni kutmoqda.

Bor-u yo‘g‘im, ko‘ngilga ayon,
Go‘zal emas, aylasam bayon,
Goho chiqdi, yo‘limdan chayon,
Qayga ketdi, mehr-oqibat,
Tark aplaydi, bizni muhabbat.

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi *Jod maktabi*

Yomg‘ir yog‘ar yuzda ko‘z yoshim,
Qaqshab tugar, sabr-bardoshim,
Bolishlarga gar botsa boshim,
Holim so‘rar bormi yo‘ldoshim,
Jon berarmi menga qondoshim?

Vaqt ham o‘tar soniya sanab,
Kimlar kelar kimdan hol so‘rab,
Ba’zan ota qolar, yo‘l qarab,
Yumushlarga qoldik boylanib,
Yurak qotdi toshga aylanib.





Kamola
Komiljonova
11-sinf o‘quvchisi

DILROZIM

Esingdami... Birgalikda surib o‘ylar,
Yurar edik kelajakning taxxin tuzib.
O‘tirardik shodligimiz yashirolmay,
Darslarda ham sukunatning uyin buzib.

Goho ko‘nglim ranjitganda g‘arazgo‘ylar,
Qaynoq mehring yupanch bo‘lib ovutardi.
Sen-la bo‘lgan damlarimda yurakkinam,
G‘am-g‘ussani butunlayin unutardi.

Eh, do‘stginam, nelar bo‘lib ketdi, qara,
Oqibatning ko‘zgusini chil-chil qilding.

Do'stligimiz bor hurmati shu bo'ldimi?
Yo bo'lmasam chin mehrni hazil bilding.

O'ylamading, o'shal onda meni bir bor,
Sirlarimni mo'maygina pulga sotding.
Bilolmadim, firibgarlar aldadi, yo
Jaholatning yo'llarida toshday qotding.

Do'stim dedim, sirim aytdim borligicha,
Ishongandim, do'stim, senga o'zimdan ko'p.
Nelar bo'ldi, anglolmadim, unutdingmi,
Qanday ahdlar qilgandig-a, aldandim xo'b.

Essiz mehr... Bechora qalb... So'qir ishonch...
Aldandi-ya, sendayin bir bevafoga.
Mayli, nima bo'lsa bo'lsin yaratgandan
Shifo so'ray senday behol bedavoga.





Zarina
Hasanbo耶eva
7-sinf o‘quvchisi

ILHOM QAYDASAN?

Har gal qotar, o‘ylab boshim,
Vaqtim yo‘qdir, yo‘q bardoshim.
Ilhomjonim hali kelmas,
Oshxonada kutar oshim.

Ilhom kelmas, qorin ochdi,
Xayollarim har yon qochdi.
Tashqarida shamol yelmas,
Quyosh nurin rosa sochdi.

Barmoq vazni bu qo‘ldami,
O‘y -fikrlar yo yo‘ldami?

Ilhom, sensiz she'rlar bo'lmas,
She'r yozmasam ko'nglim to'lmas.

DANGASANING MASLAHATI

Erta tongdan uyg'ondim,
Ko'zim ochgim kelmaydi.
Vazifamni qilmadim,
Balki, ustoz bilmaydi.

Hammom tomon oldim yo'l,
Yuvdim tez-tez yuzimni.
Qarasam hamma joy ho'l,
Tartibladim o'zimni.

Borsam oshxona tomon,
Kutib turardi oyim.
Kirishim bilan hamon
Oyim dedi "Voy, toyim".

Oyim menga ohista
"Tayyorlangin tez", – dedi.
Xayolim yo'lidan urib,
"Bir bog'larni kez" – dedi.

O‘ylanib, qotdi boshim,
Maktabga borish kerak.
Chaqirdi sinfdoshim,
Duk-duk uradi yurak.

Quchog‘in ochdi maktab,
Ustoz qovog‘in soldi.
“Besh” baho qo‘ydi “maqtab”
Turib oyoqlar toldi.

Do‘stim sizga maslahat,
Dangasalik qilmang hech.
Bo‘larkan har xil holat,
O‘shanda bo‘ladi kech.





**Jasmina
Abdusalimova**
7-sinf o‘quvchisi

MO‘JIZA

Ko‘rkam, katta shifoxonada
Yotar edi yoshgina bemor.
Juda og‘ir kasal edi u,
Unga dori qilmas edi kor.

Tuzalmasdi bilardi o‘zi,
Qilar edi tun-u kun taqvo.
Ojiz edi hattoki ko‘zi,
Izlamasdi hech qachon davo.

Tanasidan ketmasdi dardi,
Bir vaqlari qilardi orzu.

Xohlar edi katta bo‘lishni,
Qanday bilsin erta o‘lishni.

Maqsad edi birgina faqat,
Qilar edi doim ibodat.
Ko‘ksini o‘q tilardi doim,
Tark etmasdi tanasini dard.

Har dam ochiq qo‘li duoda,
Sog‘lig‘ini tilardi doim.
Derdi: “Darddan qutulayin men,
O‘zing shifo bergin, Xudoyim”.

Erta tongda uyg‘ondi bir kun,
Ro‘y beribdi ulkan mo‘jiza.
Dardi emas tanida tutqun,
Doim duo qilgani uchun.

Bo‘lib turar shunday mo‘jiza,
Dunyo emas berahm yomon.
Ba’zan berib shunday sinovni,
Yo‘llar ekan insonlar tomon.



Muxsisa Sindarova

9-sinf o‘quvchisi

Aslida ekan-ku, maqsading ketish,
Nega yuragimni og‘ritding ko‘p bor.
Yarador ko‘nglimni ming pora etish
Avvaldan qalbingda bo‘lgan ekan yor.

Meni qo‘rqitolmas yolg‘izlik dardi,
Hasratimdan to‘lib-toshadi ummon.
Xayolimda qolgan xotirlar gardi
Soniylar sayin uradi tug‘yon.

Chiday olasanmi sen mensizlikka?
Hech ham qiyamasmi sog‘inch va alam?

Qara, ko‘nikyapman men sensizlikka,
Sensizlik dardlari bir butun olam.

Sendan bir o‘tinchim, yorug‘ dunyoda,
Sira qaytib kelma “tinch” hayotimga.
Endi biz bиргамиз faqat ro‘yda,
Boshqa isming yozmam o‘z bayotimga!





**Madina
Sayfullayeva**
9-sinf o‘quvchisi

OPPOQ TUYG‘U

Oq tushadi xazonlarning yaproqlariga
Turar sokin, ma'yus, o‘yga cho‘mgan kabi.
Qor yog‘adi daraxtlarning quchoqlariga
Qirov tushgan ko‘zlarini yumgan kabi.
Yog‘och uyning mo‘risidan chiqar tutun
Ular kutar, xayoliga kelmas uyqu.
Intizorman men ham o‘sha qorong‘u tun
Yuragimni qoplab olgan oppoq tuyg‘u.
Ko‘z qamashar turli ranglar jilosidan
Azob bergen, axir, menga bir yil sog‘inch.
Hushyor tortib bedor soat ovozidan
Berar menga yangi yilga yangitdan kuch.



*Nilufar
Qodirova*

9-sinf o‘quvchisi

BOLALIK

Musaffo osmonlarda
Qush bo‘lib uchsam deyman.
Yam-yashil dalalarda,
Tulporday chopsam deyman.

Bolaligimga qaytib ,
Suvlarni kechsam edi.
Daraxtlarga osilib ,
Arg‘imchoq uchsam edi.

Qir-u adirga chiqib,
Lolalarni terganim.

Yodimdan chiqmaydi hech,
Onamlarga bergenim.

Kech kirsa osmondagি,
Yulduzlarni sanardim.
Fazogir bo‘lishni men,
Juda orzu qillardim.

Bolalik–beg‘uborlik,
Unda yayraydi jonlar.
Yodimizga soladi,
Bolalikni shu onlar.





**Mushtariy
Narziqulova
8-sinf o‘quvchisi**

“HAYOT”

Qara , aylanadi falak gardishi ,
Misli “Teatrga o‘xshaydi dunyo”
Hayot sahnasida rol o‘ynar kishi ,
Seni olqishlaydi sinovlar go‘yo.
Taqdir kemasida chayqalar umr ,
Qismat yo‘li tomon eltar manzillar.
Azob va yo shodlik yo‘qlasa bir-bir ,
Umringni bezarkan shu yorug‘ kunlar .
Rango-rang tuyg‘ular, sen musavviri ,
Qalb girdobi uzra ko‘milib borar.
Poyonga yetganda umr tasviri ,
Faqat ezgulikka tashna dil qolar!



Ma'mura Yusupova

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosbosari, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori

ZULFIYA – EHTIROM VA E'TIBOR RAMZI

Esse

Vujudidagi g'alayonlar yuziga urgan alvon rangli atirgul bog'ning ko'rkiga ko'rк qo'shib turibdi. Uning anvoyi ifori olamni o'ragudek bog'ga kirgan insonni mast aylaydi. Bir vaqt kutilmaganda to'fon boshlanib, osmonni qora bulut qopladi. Yomg'irning shitir-shitir ovozi esa yon atrofni tutib ketdi. Tomirlari qalin, ildizlari

baquvvat dov-daraxtlar tebrana boshladi. Yonida tayanchi yo‘q yagona atirgul esa shamolning injiqliklariga bazo‘r chidadi. Nedirki bo‘ron tuga-gandan keyin ham bir-ikki yaproqlari to‘kilganini hisobga olmaganda mittigina atirgulning sabr-matonati, shamolning shiddatlariga chidagan iro-dasini sadoqat va matonatli ayollarga qiyoslasak, ne ajab. Ayol gul misoli nafis va jilvador. Faqat bu gul payhon qilish uchun emas, yashnash, olamga ifor taratish uchun yaralgandir... “Ayollarni mayda deganlar, so‘zlarini qaytib olsinlar”, degan ta’kidida Tursunoy Sodiqova aynan uning dunyoga teng-lashuvchi matonatini nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas.

Jamiyatimizda mehribon rafiqqa, samimiystoz, haqiqatgo‘y rahbar va asl inson nomiga monand ayollar juda ko‘p. Biroq vafo timsoliga aylangan, qadam bosishidan tortib, bir imo-isho-rasi, atrofidagilarga munosabatida ham nafislik isi ufurib turgan Sharq ayolining timsoli deganda ko‘z oldimizda Zulfiyaxonim gavdalanadi.

“Zulfiya” – so‘zi sochi uzun qoramag‘iz qiz degan ma’noni anglatadi. Zulfiyaxonim minglab yoshlarni ortidan ergashtiradigan, ularni

qo'llaydigan, faol ayollarni xalqqa tanitadigan bir davrda Zulfiya ismini qo'yish urf bo'ldi.

Taniqli qoraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupovning:

“...go'zallik timsoli bo'lsin ilohim,

Ismi ham, o'zi ham Zulfiya bo'lsin!” degan so'zlar fiqrimizga isbot bo'la oladi.

Zulfiyaxonim hayotlig‘ vaqtida ko'plab davarlarda, el orasida va adabiy suhbatlarda bo'lgan. Biroq shoir dilini yayratuvchi, uning ko'ngil torlarini chertib, ajib bir zavq ularshguvchi bir davra borki, undan kechging kelmaydi aslo. Bu she'riyatning tantanasi – mushoiradir...

Quyoshning zarrin nurlari tuproq uzra quyilib, ajib bir tarovat hosil etdi. She'rga oshufta ko'ngillarni birlashtiruvchi, san'at va mahoratning bayrami bo'l mish mushoira o'z bag'riga do'stlarni chorlay boshladi. Shoiraning asl mahorati aynan mana shu she'rda ko'proq namoyon bo'ladi.

Mushoira....bu shundayin dilgir davraki, muhtasham zalga hatto ehtiyoj yo'q. Qayerda bo'l mang, sizni yaqinlaringiz yanglig‘ tushuna

oladigan insonlar davrasida bo'lsangiz bas, dilingiz yayraydi. Turli millat vakillarining ijrosi shu qadar jozibadorki, tarjimonga-da hojat yo'q.

Hind tuprog'i uzra boshlangan she'riyat kechasida so'z olgan shoirning kuylagan qo'shig'i go'yoki shoiraga Nil daryosining quadratini eslatadi. Yana birining esa Gang misol zamzama qilgani uni hayratlantiradi. Birin-ketin davraga chiquvchi shoirlar go'yoki o'z vatanlari, o'z eli dardi va tashvishi, xalqining qalb tug'yonlarini ko'rsatuvchi oyna kabi gavdalanadi.

Shoira borliqdagi manzaralardan ham o'z-gacha teshbeh izlaydi. Xuddi barcha narsa she'rga ko'chgandek, uning ajib dunyosiga yo'g'rildgandek. Rang-barang chiroqlar osmon ko'zlarida mo'ltiragan bo'lsa, sohil uzra kezgan shabboda gohi gullar bo'yini, gohi hind qiz kuyini olib kelganday... Va bularning barchasiga ilhom va jasur qalam hokim edi deydi u.

Shoira e'tiboridan poygakda yechilgan poy-abzallar ham chetda qolmagan. Har yerdan o'z eli tuprog'ini olib kelgan, Hindistonning mirishkor mohir kosiblari ishiga qoyil qolgan shoira Xi-

toyning bejirim, Bog‘dodning, Eronning puxta ertak so‘zlaganday egilib turuvchi poyabzallarni ta’kidlab o‘zimizdagи Ahmad mohir ustaning ishini ham alqab o‘tadi. Oddiygina poyabzal detali orqali u o‘zbek hunarmandchiligi namunalari va san’at asarlarining dunyo bilan tenglasha olishiga ishora qiladi.

She’rda “kumushday sochida jilvalanar nur,”, “ko‘z yoshi daryoday oqqanin eslar” ... kabi bir necha o‘xshatishlardan foydalaniłgan.

Urushdan keyingi yillarda yozilgan ushbu she’rda endigina o‘zini arang tutayotgan xalqlar hayotidan hikoya qiluvchi jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Urush yillaridagi judoliklarda toblangan hind xalqiga nisbatan shoira shunday deydi:

“Nelarni ko‘rmadi bu ko‘zlar?” Yurtda
Ko‘z yoshi daryoday oqqanin eslar...

Endi esa Hindiston diyori ustida oftob balqigani va she’r bahsiga xitob qilgani tasvirlanadi. Shuningdek, Nepal, Vietnam, Xitoy, Arfika shoirlarining she’r o‘qishi shoirani o‘zgacha ilomlantiradi. Go‘yoki ularning bu ajib ijrosidan to‘lqinli soy ham tebranib qo‘yadigandek. Ha,

aslida qardoshlik va do'stlikka ko'priq bo'lgan mushoira bag'rida ishchi dehqondan tortib, oddiy insonni ko'rish mumkin. She'r yozib o'qimasa-da, yuragida orzu va g'oyalari jo'sh urgan har qanday insonning bu suhbatdan qalbi shod bo'ladi. Shuning uchun ham shoira she'rda "Do'stim, kel sen ham!", "Buyuk mushoira etadi davom, Kelingiz siz ham!" deya qayta-qayta ta'kidlaydi. Quyidagi misralar esa she'rning tugal mazmunini yanada oydinlashtiradi:

Xavfdan xalos bo'lgan bashariyatning

Qo'shig'in to'qisin, ozod, tinch inson!

Xalqlar boshidagi ozodlik quyoshi abadiy porlashi – shoiraning asl maqsadi. Shundagina o'sha elda obodlik hukm suradi, barcha shoirlar kuyiga hamohang bo'ladi. Mushoira yanglig' she'r tantanalari esa insonlarni saodatli manzillar sari yetaklayveradi.

Davramiz mehrga to'liq bir olam,

Do'stlar bari jam,

Buyuk mushoira etadi davom

Kelingiz siz ham!

Bilsangiz, Jizzax shevasida onaga nisbatan "aya" so'zi ishlatiladi. Zulfiyaxonim Jizzaxga

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi Ijod maktabi

kelin bo‘lgach, shu elning shevasiga umrbod sodiq qoldilar. “Aya” so‘zi ularning tillaridan bir zum tushmadi. Birgina shu harakatning o‘zi shoiraning nafaqat kelin bo‘lib tushgan eliga, yori va uning oilasiga nisbatan ehtiromini ko‘rsatadi. Shuningdek, ular Hamid Olimjon xonadonidagi har qanday ma’raka va marosimlarda faol qatnashar, sog‘lig‘i to‘g‘ri kelmagan vaziyatlarda, albatta, farzandlarini jo‘natish orqali turli an’analarga sodiq qolgan ekanlar.

2021-yilning dekabr oyida Zulfiyaxonim shogirdlari, ular uzoq yil ishlagan “Saodat” jurnalining hozirgi jonkuyarlari bilan Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabida uchrashuv o‘tkazildi. Ayniqsa, Qutlibeka Rahimboyevaning xatti-harakatlari, so‘zlashi, she‘r aytishlarida men shoiraning suratlarga muhrlangan xarakterini ilg‘agandek bo‘ldim. Har safar ularning nazari menga tushganda bir sergak tortib, o‘zimni tartiblardim go‘yo. Uzoq muddat bir xonadonda shoira bilan hamnafas bo‘lgan shoiramiz ajib xotiralarni o‘rtoqlashdilar. Dastlab Jizzax viloyatiga bo‘lgan ehtiromlarini ular

shunday izohladilar:

— Men har gal Jizzaxga alohida ehtirom bilan kelaman. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romanidagi bosh qahramon Nomoz Botir ham shu eldan chiqqan. Ana shunday fidoyilar yurti bu. 1916-yilda o‘tgan Jizzax qo‘zg‘olonidagi kurashda jasorat ko‘rsatgan mard ayollarning vatani bu. Jizzax elga shohlar beradigan zamindir! Zulfiyaxonimdek saodatlari ayol ham Jizzax elining suyukli va erka kelinlaridan.

Shoiraning zamondoshlari xotirasiga nazar tashlasak, u haqida turli ezgu fikr va mu-lohazalarga ko‘zimiz tushadi, go‘yoki bu samimiy ayol bilan dillashgandek bo‘lamiz.

Zulfiyaxonim hamisha xotin-qizlarni faollikka, jamiyatda faol bo‘lishga chaqirar, yarq etgan iste’dod uchqunlarini qo‘llashga hamisha harakat qilar edilar. Qutlibeka Rahimboyeva bunga yana bir misolni keltirdilar. Uzoq yillar oldin Vodiydagি bir uchrashuvda Alisher degan yigit shoiraning e’tiboriga tushadi. U bilan do‘stlashib, suhbatlashib, uning unib-o‘sishi va qobiliyatini namoyon etishiga turtki bo‘lish bilan birga unga

xat yozib turar, ahvoldidan hamisha xabardor bo‘lib turar ekanlar. Zulfiyaxonim unga atab hatto “Bir bola bor oti Alisher” degan turkum yaratgan ekanlar. Hozirda shoiraning nazariga tushgan o‘sha kichik Alisher fan nomzodi, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan tajribali pedagogdir. O‘sha kungi davra suhbatи ajoyib she’rxonlikka ulanib ketdi.

“Saodat” jurnalining ezgu maqsadlaridan biri, jamiyatdagi mehnatkash, faol ayollar hayotini targ‘ib qilish, o‘zbekning asl ayoli faqat uy bekasigina emas, jamiyatning turli qatlamlarida ilg‘or shaxs ekanligini namoyon qilishdan iborat. Shuning uchundir ushbu jurnal hali-hanuz qo‘ldan tushmay kelayotir. Uning hozirgi bosh muharriri, shoira Munavvara Usmonova ham ijodiy uchrashuvda davramizga o‘zgacha fayz bag‘ishlab, hayotiy tajribalarini o‘rtoqlashdi. “Saodat”da xalqning asl dardi va tashvishlari, oddiy insonlar hayotidagi holatlar, faol va namunali ayollarning ibratli jihatlari ortiqcha bo‘rttirishlarsiz, bo‘yoqlarsiz ta’riflangani, Zulfiyaxonim singari ustozlarning nafasi ufurgani uchun ham shundayligicha sevimli nazarimda”, –

dedilar. Munavvara Usmonova “Zulfiyaxonimdan ibrat olib, ulardek bo‘lishga intilaman, jurnallarni qayta-qayta varaqlab, ular haqida bir nechta odamdan so‘rayman, ularning aynan qaysi xattiharakati odamlar ko‘ngliga rang solgan ekan deb o‘ylayman”, dedi. Ha, ba’zida inson buyuk bo‘lishi uchun buyuk ishlarni qalbi bilan ko‘rishi kerak ekan.

Shoira yori vafotidan so‘ng biror marta yorqin libos kiymagan ekan...Umr o‘taveradi, insondan faqatgina yaxshi nom va ezgu amallar qoladi. Shoiradan bizga faqatgina go‘zal adabiy meros, ezgulik qoldi. Ana shu ezgulikni yurakka muhrlash, uni avlodlarga omon yetkazish siz-u, bizga havola.





**Nargiza
Ashirmatova**

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

ZULFIYA SHE'RIYATIDA ZID MA'NOLI VA MA'NODOSH SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Adabiyotimizning suyukli ijodkori, xalq shoirasi taniqli jamoat va davlat arbobi, sadoqat va vafo timsoli Zulfiyaxonim she'rlari o'ta haroratliligi, betakrorligi bilan adabiyot ixlosmandlarini ohanrabodek o'ziga maftun etib kelgan. Chunki shoira lirikasida vatanparvarlik, insoniylik, samimiylilik, soddalik, ona mehri kabi iliqlik, sadoqat va shu kabi o'nlab fazilatlar hamisha yetakchilik qilgan. Zulfiyaxonimdagи

ziyraklik, mas'uliyatlilik, so'zga chechanlik hamda so'zga bo'lgan saxiylik shoira merosining umriboqiyligini ta'minlagan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ayt-ganlaridek, Zulfiya ijodi millionlab kishilarga muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda, sadoqat va vafo ramzi bo'lib yashamoqda.

Zulfiyaxonim umri davomida ijodiy faoliyatdan to'xtamay badiiy ijod ichida yashadi. Shoira bir-birini takrorlamaydigan misralar yaratishda tilimizning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan. Jumladan, uning she'rlarida tilimizga xos antonim va sinonim-larning qo'llanilishi shoira lirikasini badiiy jihatdan to'yintirishga xizmat qilgan. Biz yaxshi bilamizki, ona tilimizning cheksiz imkoniyatlari lekskologiya bo'limida o'z aksini topadi. Chunki biz ushbu bo'limda so'zni, uning turli ma'no tomonlarini o'rganamiz. Jumladan, ma'nodosh so'zlarni oladigan bo'lsak, ushbu guruh so'zlarini nutqimizni jozibador qiladi, ta'sirchanligini ta'minlaydi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin

Vohidov ham o‘zining “So‘z latofati” asarida ma’nodosh so‘zlar haqida to‘xtalib o‘tadilar:

“Oftob chiqdi, quyosh chiqdi, kun chiqdi,
Mehr-u, shams-u xurshidi gardun chiqdi.

Bir zamon bolalar uchun aytilgan shu jo‘ngina va g‘o‘rgina ikki satrning o‘zida quyoshning oltita nomini topasiz! Sanoqni yana davom ettirish mumkin. Qaysi tilda osmonni kamalak ranglaridek yetti xil nomi bilan ataydilar? Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko‘k... Arsh, davvor, minu singari kam ishlataladigan xos so‘zlar ham sanalsa, ro‘yxat yanada uzayadi.”

Zulfiyaxonim she’riyatida ham antonim va sinonimlarning, asosan, leksik va kontekstual (shartli) turlari ko‘proq qo‘llanilgan.

Qani o‘sha kuychi xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh turib qolding lol
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishon hol?

“Bahor keldi seni so‘roqlab” she’ridan olingan ushbu misralarda qora va oq sifatlari

antonim bo‘lib, she‘r badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shoira lirikasidagi har bir so‘z uning hayoti, har daqiqasi, har nafasining tarjimoni desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...”
Gulni ko‘rib ishqparast ko‘nglim
Ming aytilgan darddan kuyladi.
Sevgi qurg‘ur buncha zo‘r ekan,
Hijron qo‘shar ekan harorat.
O‘lgudayin mushtoq bo‘libman –
Visolingga yo‘q chog‘i toqat.

She’riyatning go‘zal namunasi bo‘lmish ushbu parchada “hijron” va “visol” so‘zлari zid ma’noli bo‘lib, ushbu so‘zlardan shoira ruhiyatini, uning xayolot dunyosini badiiy talqin etish uchun qo‘llangan.

Zid ma’noli so‘zlarning birini aystsak, albatta, ikkinchisi xayolimizda gavdalanadi. Masalan, yaxshi desak yomon, katta desak kichik, ezgulik desak yovuzlikka kabi antonimlari xohlaymizmi

yo‘qmi, tasavvurimizda namoyon bo‘ladi. Zulfiyaxonim she’rlarida ham bu holatni kuzatish mumkin:

Kishilar qalbida boqar bo‘lib o‘t,
Bahorning sehrgar boqiy chiroyi
Yosh-keksa ko‘nglin ovlaydi birdak,
Ko‘zguni sindirib tashlar kiroyi
Har kishining yoshi bu fasl dildak
Har nurga, har qushga, har kurtakka shod
Benihoya yaqin bo‘ladi yiroq.

Mazkur misralarda yosh-u keksa so‘zlari juft qo‘llanilib, yangi ma’noli so‘z hosil qilgan. Bizga ma’lumki, antonim so‘zlar birgalikda qo‘llanilib yangi so‘z hosil qilishi mumkin. Masalan, achchiq-chuchuk ovqat turi, uzoq-yaqindan hamma yoqdan kabi.

Zulfiyaxonim qalamiga mansub “Bahor” she’ridan olingan yuqoridagi misralarda qo‘llangan yosh-u qari so‘zlari hamma ma’nosida qo‘llangan. Yaqin va yiroq so‘zlari ham zid ma’noli so‘zlar bo‘lib, ushbu so‘zlar she’rning

badiiy jihatdan mukammallashuvi hamda qo‘fiyadosh so‘zlarning hosil bo‘lishiga xizmat qilgan.

Ham tabiat, ham do‘sit, ham raqib
Barchasini qoldirib dog‘da.
Ko‘rishsak-u, yana tizilsa,
O‘sha olgan bo‘sа dudog‘da.

“Sog‘inganda” she’ridan olingan ushbu par-
chaning dastlabki misrasida do‘sit so‘zi va uning
antonimi sifatida raqib so‘zi qo‘llangan. Raqib
so‘zining sinonimlari ham mavjud. Masalan,
dushman. Bu misralarda shoira raqib so‘zini
badiiy uslub jihatdan qo‘llagan va do‘sit-raqib
kabi antonim juftlik hosil bo‘lgan.

Zangor ko‘kni birdan sipqorib
Yerni kunga tutaman kaftda
Oyga fazo ilmin sig‘dirib,
Nevaramdek olaman kiftga.

Mazkur parcha “O‘ylar” she’ridan olingan
bo‘lib, bu bandning dastlabki ikki misrasida

antonim so‘zlarining qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Ko‘k” so‘zi sof turkiycha so‘z bo‘lib, bu so‘zning tilimizda tez-tez uchraydigan samo, fazo, fors-tojikcha osmon, charx, gardun kabi bir qancha ma’nodoshlari mavjud. Shoira ushbu misrada ko‘k so‘zini, unga antonim sifatida keyingi misrada yer so‘zi qo‘llangan. Uchinchi misrada esa ko‘k so‘zining takrorlanmasligi uchun yer so‘ziga antonim sifatida fazo so‘zi qo‘llanilgan.

Ko‘k, osmon, samo, fazo, charx, gardun kabi sinonimik qatordan ko‘k so‘zining ishlatilishi, avvalo, bu so‘zning sof turkiycha so‘zligi bilan izohlansa, ikkinchidan, she’riy misradagi bo‘g‘inlar sonining teng kelishini ta’milaganligi bilan izohlanadi.

Hijroning qalbimda , sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Shoira she'rining shunday yakun topishi, go'yoki qishning sovuq, qorong'i kunlaridan keyin bahor fasli bor tabiatga yorug'lik, yasharish bag'ishlaganiga o'xshash qiyosiy, ramziy tasavvur beradi.

"Muhabbat – bu" she'ridan olingan ushbu parchada shoira tilimizdagi ma'nodosh so'zlardan juda mohirona foydalanib, ajoyib asarni dunyoga keltirganlar. Birinchi misradagi olov so'zining keyingi misralarda otash, o't kabi sinonimlarning qo'llanilishi she'r tilining sodda va dilkashligidir. Bu esa muhabbatning qudratini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan, shuni alohida e'tirof etish kerakki, bir she'r tarkibida bir necha ma'nodosh so'zlarning qo'llanilishi ham tilimizning naqadar boy va betakrorligidan dalolatdir. So'nggi misralardagi husn va chiroy so'zлari ham ma'nodosh so'zlardir.

"Muhabbat – bu" she'rida shoira nafaqat leksik sinonimlar, balki kontekstual sinonimlarga ham murojaat qilgan:

Halovating, tinching ko'rib g'ash,
Birdan borin shu o'tga otar.

Mazkur baytda halovat va tinch so‘zлari shartli sinonim sifatida qo‘llangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Zulfiyaxonimning ijodiy merosi hech qachon o‘z kitobxonlarini yo‘qotmaydi. Chunki shoira yozgan nafaqat yozgan she’rlari bilan, balki haqiqiy inson, za’rofatli ayol, mehribon ona, sadoqatli yor sifatida o‘zbek xalqining yurak-yuragidan joy olgan. Shoiraning hayot yo‘li, ijodiy namunalari har bir o‘zbek ayoliga maktab, tajriba hisoblanadi. Bejizga bиринчи Prezidentimiz Islom Karimov Zulfiyaxonim haqida “Nafaqat o‘z she’rlari bilan, balki butun hayoti bilan o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini namoyon eta olgan atoqli, fidoyi inson bo‘lib ma’naviy jasorat ko‘rsatdi”, – deb ulug‘lamaganlar.

Bu nazm bog‘iga kirolmas xazon,
Bizni mahv etolmas zavol lashkari

Men ketsam, mung‘aymas umrim
hech qachon
Bu bog‘lar – bir bog‘lar bo‘ladi hali...



Gulmira Abdullayeva

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

HAMID OLIMJON IJODIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Hamid Olimjon hayotda va ijoddha xalq baxshilariga, umuman, folkloriga alohida mehrmuhabbat va samimiy hurmat bilan qaradi. Buni biz Fozil shoirga bag'ishlangan "Kuychinging xayoli", Abdulla shoir Nurali o'g'liga atalgan "Do'mbiraning maqtovi" she'rlarida, "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", "Ikki qizning hikoyasi" kabi ertak dostonlarida yaqqol ko'ramiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shoir folklor bilimdoni sifatida o'z

ijodida o‘zbek xalq ertaklari va dostonlariga xos bo‘lgan ko‘pgina xalqona uslublarni qo‘llaydi. Natijada har qanday kitobxon bunday asarlar folklorga xos bo‘lgan oddiy motiv yoki syujet, kuchli fantastika, ehtiros va lirizm ruhi bilan sug‘orilgan shoh asarlarga aylanganligini sezadi. Bularidan tashqari, shoirning “Shodiyona”, “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Xat” va “Bo‘l omon” “Qishloq qizi” kabi she’rlari ham folklor ruhi bilan chuqur sug‘orilgan ajoyib asarlar sifatida adabiyotimiz sahifalaridan munosib joy oldi. Ularni o‘qiganda har bir she’riyat shaydosi, yagona umumiy xususiyat xalqona ifoda usuli birlashib turganligiga guvoh bo‘ladi. Hamid Olimjon “Zaynab va Omon”dagi: Kokillari uning tol-tol Lablarida bitgan qora xol, Bu dunyoga arzигудай бор... каби лирікнағас місраларни yoki “Alpomish”dagi: Kokillaring eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol... singari epik tasvirdan ijodiy foydalanganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunday misollarni shoir ijodidan juda ham ko‘plab keltirish mumkin. Xalq og‘zaki ijodiyotining yozma adabiyot vakillari ijodiga

ta'siri turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.
Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ridan esa
quyidagi misralar bor:

Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam.
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Chavandozlar bordir bu elda,
Bahor chog'i pishqirgan selda.
Arg'umoqlar qo'shilg'i bordir,
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o'smas tikonlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar,
Qush uchsa-da, kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti.
Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Kuychilar o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasini yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.

Parchaga e'tibor bilan nazar tashlansa, ta'rifning ko'pgina mushtarak tomonlarini anglab olish qiyin emas. Jumladan, dostonidagi ta'rifda Xorazmning yoz-u qishlarining o'ziga xos tarovati kuylansa, shoir misralarida diyorimizning ko'klam fasli madh etiladi. Dostonidagi elning qariyalari, qiz va yigitlari haqidagi ta'rif she'rda yanada aniqroq tarzda o'z aksini topadi. Dostonda bedovlar, qushlar g'urur bilan tasvirga olinsa, she'rda ham arg'umoqlar, bulbullar ta'rifi yuksak ko'tarinkilik bilan talqin etiladi. Dostonda hatto cho'llarning bag'rida bebahoh boyliklar yashiringani kuylansa, she'rda ham ushbu masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi. Ikkala she'rning bag'rida yashiringan yuqoridagi asosiy detallar ulardagi asosiy mundarijaning o'zaro ancha yaqinligini har jihatdan isbotlaydi. Albatta, H.Olimjon she'ridagi ta'riflar keng qamrovli va zamonaviy bo'lib, she'r esa o'zi yaratilgan davr bilan uzviy bog'langan, badiiy barkamol asardir. Biroq bu she'rning paydo bo'lishida "Yusuf va Ahmad" dostonidagi Xorazm ta'rifining muayyan ta'siri bo'lishi mumkin. Chunki H.Olimjon

xonadonida ko‘plab baxshilar tez-tez bo‘lishib, Mulla Azim bilan suhbatlashib, dostonlar kuylaganlar, qissaxonlik qilganlar. H.Olimjon esa “Yusuf va Ahmad”ning qo‘lyozmasini o‘qigan bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ushbu doston Fozil shoir repertuarida bo‘lganligi bizga ma’lum. Binobarin, dostondagi el-yurt ta’rifi H.Olimjon-da O‘zbekiston ta’rifi bilan aloqador fikrning tug‘ilishiga sababchi bo‘lib, shoirning ilhom manbayi sifatida xizmat qilganligi, shubhasizdir. H.Olimjon bolalik chog‘laridanoq folklorga alohida mehr bilan qaragan bo‘lsa, umr bo‘yi xalq shoirlari bilan hamnafas, hamdard, hamkor va ijodiy aloqada bo‘ldi. Ularning dostonlaridan ijodiy ravishda katta mahorat bilan foydalana oldi. Bularning hammasi “Hamid Olimjon va folklor” mavzusining turli qirralarini tashkil etadi. Xalq og‘zaki badiiy ijodiyotiga xos mazmun va shakl komponentlaridan foydalanish yozma adabiyotni asosiy omillaridan biri. Zotan, iste’dod xalq hayotidan, uning ma’naviy-psixologik va milliy-mahalliy ruhidan ayri holda barkamol bo‘la olmaydi. Binobarin, “Shoir bo‘lib tug‘ilish kerak

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi *Jod maktabi*

bo‘lsa, u taqdirda xalqchil ham bo‘lib tug‘ilish kerak” (V. G. Belinskiy). Hamid Olimjon V. G. Belinskiy orzu qilgan shoirlardan edi. Uning shavq va suruga to‘la she’riyati teran xalqchil hamdir. Shoirning badiiy ijodda xalqchillikning o‘zagini tashkil yetuvchi folklorlarga murojaati masalasi o‘zbek adabiyotshunoslarining ko‘plab ilmiy ishlardan o‘rin olganligi jamoatchilikka ma’lum. Bu ishlarda shoirning xalq og‘zaki poetik ijodiyoti namunalariga murojaat etishida kelib chiqadigan umumiyligi prinsiplar aniqlangan va folklor H.Olimjon asarlariga xos xalqchillik xususiyatining markaziy nuqtasi ekanligi haqidagi xulosaga kelingan. Bundan H.Olimjon she’ri xalq termalariga taqliddan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Aytib o‘tilganidek, H.Olimjon o‘z oldiga qo‘ygan g‘oyaviy-estetik maqsaddan kelib chiqib, original mazmunni o‘quvchiga yetkazishda xalq termalarining shakl imkoniyatlaridan keng foydalana olgan. Demak, Hamid Olimjon o‘z ijodida, ayniqsa, she’riyatda xalq tilining eng ta’sirchan formalarini topib, ulardan mahorat

bilan foydalangan, faol ishlatmaydigan jonli til faktlarini estetik hodisaga aylantira bilgan. H.Olimjon she'riyatida xalq og'zaki ijodidan foydalanish usullarini kuzatar ekanmiz, ularning yana bir tomoni ko'zga tashlanadi. Bu – folklorning eng uzoq ko'rinishlaridan bo'lgan, kichik janrlari bo'lmish maqol va matallardan foydalanishdir. Bu usul yuqorida ko'rib o'tilgan folklorona shakl elementlaridan yoki birorta motivdan foydalanishdan xiyla farq qiladi. Masalan, shoirning "Baxt to'g'risida" she'rini olaylik. Xalq orasida "Har kim o'z rizqini yer", "Har kim taqdir qilinganini oshar" kabi maqollar mavjud. Folklor xazinasidagi boshqa yuzlab maqollar singari ularda ham chuqur mazmun sodda va lo'nda ifodalangan. A. Oripov mana shu maqollar mazmunidan kelib chiqib, "Dunyoni qizg'anma" she'rini yaratdi. Bizningcha, bundan yarim asr muqaddam "Baxt to'g'risida" she'rining yozilishiga ham maqollar mazmuni turtki bergen bo'lishi mumkin. Negaki H.Olimjon qalbida o'zining nurli toleyidan shodumonlik hislari to'-lib toshgan edi. Bu hislar, asosan, xalqning yaqin

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi *Jod maktabi*

o‘tmishidagi qora kunlari bilan bugungi baxtli taqdiri va porloq kelajagi haqidagi mushohadalar assotsiatsiyasidir. Falsafiy mushohadalarning badiiy-estetik hodisaga aylanishi, muayyan mantiq ipiga tizilishi uchun esa qandaydir sabab kerak bo‘ladi. “Baxt to‘g‘risida” she’ri aftidan, qaynoq poetik ehtiroslarning yuqoridagi maqollar mazmuni ta’sirida tugal ifodasini topgan ko‘rinishidir. Demak, H.Olimjon lirk asarlarida folklorga murojaat etish asosan xalqona poetik shakllar, folklor asarlaridan o‘zlashtirilgan motivlar, shuningdek, maqol va matallardan foydalanish orqali amalga oshgan ekan. Zotan, Homil Yoqubovdek ustoz “Shoir lirkasiga folklor obrazlarning urug‘larini sochib, avaylab parvarish qilib, yangi zaminda qaytadan o‘stirdi”, deb yozganida to‘la haq edi, deb o‘ylaymiz. Xulosa qilib aytganda, folklor H.Olimjon lirkasiga teran falsafiylik, jo‘shqin optimizm va jozibador o‘ynoqilik baxsh etuvchi badiiy fakt bo‘lib xizmat qilgan. Novator shoirning lirk she’rlariga xos ana shu an'anani biz bugungi kunda o‘zbek she’riyatining E. Vohidov, A. Oripov, O.Matjon,

H. Xudoyberdiyeva, U. Azim va boshqa vakillari ijodida yana bir bor kuzatamiz. Demak, Hamid Olimjon o‘zbek she’riyatini tongotarida uni asriy og‘zaki ijod namunalari bilan omixtalashtirishda muhim hissa qo’shgan, bunday ijodiy jarayon hozirgi she’riyatimizda ham o‘zgacha uslubda hamon davom etmoqda, deb aytish mumkin.





Nilufar Mamatqulsova

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi

O'ZBEK ADABIYOTIDA HAMID OLIMJONNING TUTGAN O'RNI

O'zbek xalqining atoqli farzandi – talantli dramaturg, yirik olim va tanqidchi Hamid Olimjon o'zidan o'lmas meros qoldirgan. U o'zbek adabiyotida she'riyat maktabini yaratgan shoirdir. Hamid Olimjonning qaynoq ijodiy hayoti xalqqa fidoyilarcha xizmat qilishning, uning boy og'zaki va yozma madaniyatini e'zozlashning go'zal namunasidir. Chindan ham, milliy taraqqiyot ideali, Vatan va xalq sevgisi, azaliy o'zbekona qadriyatlarga sadoqat Hamid

Olimjon hayoti va ijodi uchun rahnamo kuch va ilhombaxsh qudrat bo‘ldi. Yuksak insoniy e’tiqod sohibi Hamid Olimjon qadrdon yurti va xalqining madaniy taraqqiyot yo‘lidan mardona odimlar bilan borishi uchun astoydil ter to‘kdi. Uning asarlari hali-hamon bizga estetik zavq, ruhiy ozuqa, yashash va ishslash uchun kuch berishda davom etmoqda. Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Narimonov nomidagi boshlang‘ich maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923–1926), o‘zbek Pedakademiyasida (1926–1931) o‘qidi. Hamid Olimjonning qanday shoir va qanday inson bo‘lganligini safdoshlari yaxshi bilishgan. Shoir Mirtemirning yozishicha: “Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi. Uning qonida, o‘zligida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, bilgichlik, burrolik, nurbaxshlik, yorqin qalb va adab ayon edi”.

Hamid Olimjon she’rlaridagi shiddat, jan-govar ruh, murosasizlik ayni paytda uning shaxsiy fazilatlari ham edi. U hatto eng yaqin kishilardagi

nosamimiylilik, insofsizlik, meshchanlik qusurlari bilan ham kelisha olmasdi. Agar shoir qalbida muhabbatning otashin olovi balqib turmagan bo‘lsa, har qanday yuksak iste’dod sohibi ham bunday she’riyat durdonasini yarata olmasa kerak. Haqiqatan ham, ijod olami sohiblari qalbida muhabbat, sevgi jo’sh urmasa, ularning yaratgan ijod namunalarida haqiqiylik aks etmay qoladi. Shoirning o‘z rafiqasiga bo‘lgan muhabbati Farhod va Majnunlarning sevgisi yanglig‘ edi. Ana shu muhabbat tufayli u o‘z baxtini yana chuqur his etdi. Hamid Olimjon o‘z muhabbati bilan behad darajada baxtiyor edi. Baxtiyor kishining ko‘ziga esa hamma narsa go‘zal bo‘lib ko‘rinadi:

Baxtim borki, har narsa go‘zal
Ko‘rinadi mening ko‘zimga.

Hamid Olimjon she’rlarining ravon musiqiy oqimida badiiy so‘zning qudratigina emas, balki rangin jilvalari ham yaqqol ko‘rinib turadi. Hamid Olimjon she’rni chinni kosadek jaranglatib yozar va o‘qir edi. U har bir yangi she’rini baland

ovozi bilan o‘qib, uning qanday jaranglashiga qulqoq solar, uning musiqiy ifodasiga alohida e’tibor berardi. U she’rni minbardan o‘qiganda, tinglovchining yuragi jiz etmasligi, uning she’ridagi insoniy ranglar o‘yini tinglovchi yuragini junbushga keltirmasligi amrimahol edi. San’at va adabiyotning biror turi yo‘qki, u o‘zida she’riyatdek ijodkorning kechinmalarini va dunyoqarashini, ehtiroslarini, qalbining nozik jilvalarini aniq va ravshan ko‘rsata olmasa. Shoir qalbi uning she’rlarida bor quvonchu hasrati bilan namoyon bo‘ladi. “Hamid Olimjon she’rni shunday mahorat bilan o‘qir ediki, eshitgan odam maftun bo‘lmasdan iloji yo‘q edi. Urg‘u, ohang, yo‘nalish, avj – hammasi o‘rnida edi”. Bu Mirtemirning Hamid Olimjonning she’r o‘qish san’atidan olgan taassuroti. Hamid Olimjon she’rlarining lirik qahramoni qaynoq hayotdan, kurashdan qochmaydi. “Biz olov, o‘t kabi kurashamiz va sevamiz”, – deb xitob qiladi u. Kurashga chanqoq, dushmaniga nisbatan shafqatsiz va murosasiz bu qahramonning qonida Vatanga, xalqqa, yorqin kelajakka nisbatan

muhabbat o‘ti yonadi. She’rdagi poetik obrazlar Hamid Olimjonning qalami kundan kunga o‘tkirlik kasb etayotgani, o‘zining esa nafaqat yosh shoir, balki jamiyatning ongli a’zosi sifatida ham shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Shoir yozgan edi:

Qalblarda alamlı, motamli bir bayroq
Kuz kuni yel o‘pgan yaproqdek egildi.
Qo‘ynini ochardi hansiroq bir tuproq,
Yosh chechak chamanda xazondek to‘kildi.

O‘zbek she’riyatida shaxsi, insoniy sifatlari, kechinmalari, dardi, tug‘yoni Hamid Olimjon she’rlarida bo‘lgani kabi to‘la aks etgan shoirlar sanoqlidir. Shu ma’noda Hamid Olimjonni sho‘ro davrida o‘zbek she’riyatiga samimiylikni olib kirgan shoirlardan biri, deyishimiz mumkin. Hamid Olimjon bolalik chog‘laridanoq rus adabiyotiga ham qiziqqan. “Sakkiz-to‘qqiz yoshlарimda, men Pushkinning ko‘p she’rlarini yoddan bilardim va ularni o‘z o‘rtoqlarimga o‘qib berardim”, – deb yozgan edi Hamid Olimjon

tarjimayi holida. O'sha davrda rus tilidagi she'rlarni yoddan bilish hammaning ham qo'lidan kelavermas edi. Hamid Olimjon mакtabda hammadan ilg'or o'quvchilardan bo'lib, tinmay o'r ganar, bilimga chanqoq edi.

Bola edik, tanlar edik.
Qalb qaynoq, ko'zlar o'tkir.
Dillar sof, erkin-erkin o'ynardik...
Hayot bilan qaynar edi, ko'y-qishloq
Bir yonda tog', bir yonda bog'...
Suv oqardi qo'ynda,
Ko'krak kerib, baliq kabi
Sho'ng'ib yotardik...
Qizlar o'tsa orqasidan Olma otardik...

"Bolalik" she'ridan keltirilgan parchadan ham ko'riniб turibdiki, u yoshligidan sho'x, ziyrak va nihoyatda harakatchan bola bo'lган. Hamid darslarni puxta o'zlashtirar, mакtab hayotiga zavq bilan qatnashar edi. Maktab kutubxonasi uning eng sevimli joyi edi. Shu qiziqish, shu jo'shqinlik shoir hayoti davomida uni tark etmadi.

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi *Jod maktabi*

U qisqa, lekin sermazmun umr ko'rdi va butun hayotida xalq, Vatan ishiga fidoyilik namunasini ko'rsata oldi. Hamid Olimjon kelajak avlodga talabchanlik bilan yondashdi. Lekin u bu avlod vakillarida iste'dod va ijodiy shijoatni ko'rib, ularga mehr qo'ydi, ularni adabiyotimizning issiq bag'riga olib kirdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan u tug'ilib o'sgan yurtda maktab qurilib, uning ijodiga qiziqqan ijodkor yoshlarni o'z bag'riga chorladi. Hamid Olimjon qanchalik shoir va jamoat arbobi sifatida el-yurtga tanilgan bo'lsa, ushbu maskanda o'qiyotgan yosh ijodkorlarimiz ham u kabi oshufta shoir bo'lishlari zarurdir. Bu maskanda ta'lim olayotgan yoshlarimiz Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimdek porlab, har jihatdan ularga o'xshashlikka harakat qilishlari lozimdir.





**Shohsanam
Abduazimova**

9-sinf o‘quvchisi

**ZULFIYAXONIM –MENING
NAZDIMDA**

E’zozlar, ardoqlar uchun tashakkur,
Asli siz oftobim, men ziyo siman.
Tonglaringiz kulsin dorilamon, hur,
Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman.

She’riyat xuddi to‘lib-toshib oqayotgan buloqqa o‘xshaydi. Uning jimirlashi ko‘zni quvontirsa, zilol suvi insonni yana shu suvdan ichishga undayveradi. She’riyatni ko‘ngil uyining javohiri deyish mumkin. Chunki u ko‘ngildagi so‘zlarni gavdalantiradi. Bu vazifani esa o‘zining haroratli she’rlari bilan yuraklarni zabt etgan

sadoqat mulkining malikasi Zulfiya Isroilova maromiga yetkazib bajardi. O‘zbek poyeziyasida Zulfiya degan nomning chaqnab paydo bo‘lishi tong yulduzining tug‘ilishiga teng voqeа bo‘ldi. Buyuk shoir va yozuvchilar shoiraning adabiyot olamidagi ilk ovozini eshitib, birinchi she’rlarini o‘qiganda tuyg‘ularning tozaligi, hislarining nafisligi, she’rlarining samimiyligidan suyungan edilar. Zulfiya degan ismda hijronzada yuraklarning ohi, nidosi mujassam bo‘ldi. Shoira dunyo she’riyati ehromiga qalbining musaffo, pokiza, tiniq, shaffof ziyosi bilan esh bo‘lgandi. Sevgi fazosida uchib yurgan shoira hayotining baxtli kunlaridan birida u taqdirning og‘ir zarbalariga uchradi. Kutilmaganda bir umrlik suyanchig‘i Hamid Olimjondan judo bo‘lish u uchun juda katta fofja edi. Ammo u ijod qilishda davom etdi. Endilikda u nafaqat o‘zining, balki Hamid Olimjonning ham qalamida ijod qildi. Zulfiya she’rlari orqali xayolan yori bilan tillashar edi. So‘nggi paytlarda uning ijodida hijron, iztirob kabi mavzular yetakchilik qilmoqda edi. Misol uchun:

Behishtiy jaranglar – jonimga oro,
O‘zimning baxtimda o‘zim yo‘qoldim.

misralari orqali shoira ikkita musibatga ishora qilmoqda. Biri qonli urush davri bo‘lsa, ikkinchisi atoqli shoir Hamid Olimjonning vafoti edi. Shoiraning qizi Hulkar Olimjonova o‘z xotiralaridan birida shunday eslaydi: “Esimda, bir kun rahmatli ayamlar bilan so‘zlashib o‘tiribmiz. Gap yangi chop etilgan “Oybegim mening” kitobi haqida. Ayam: “Oybek domлага havasim keladi. Yonlarida Zarifa opaday shaxs bo‘lgan kishi nihoyatda baxtli ekan”, – degandilar. Yana bir gal Kibriyoxonim Qahhorovaning “Chorak asr hamnafas” nomli kitoblarini eslaganda ham o‘z afsusidan so‘z ochganlari esimda: “Men esa dadang haqida bir kitob yozmadim, hatto bir dostonimni tugatolmay yuribman...” Qarangki, har bahorni yarim asr davomida she’r bilan qarshi olishga odatlangan ayam yozibdilar:

Yarim asr qalam dehqoni bo‘lib,
Kechir, qo‘yolmadim she’rimdan haykal!”

Darhaqiqat, shoirlik unvon emas – qismat! Bu shirin qismat hammaning ham etagidan tutavermaydi. Zulfiya o‘z nutqlaridan birida shunday degan edi: “Shoirlar o‘z tarjimayi hollarini yozmasliklari joiz. Negaki shoirlar haqida she’rlari tavsif beradi. Ular haqida hamma narsani aytib bermasa ham, ijodlarida hayotlarining ko‘pchilik tomonlarini sharh etib berishga qodir she’rlar bo‘ladi”. Shoirlar o‘z xalqining elchilaridir. Chunki ular xalqning dardi bilan kuyib yashaydi.





Lola
Qosimova
7-sinf o'quvchisi

KOMPYUTER

Nima uchundir maktabdan ham, kitobdan ham bezib ketdim. Kitob qo'limga tushsa, boshim og'rib ketardi. Uning o'rniga kompyuter o'ynashni maqul ko'rardim. Kunim kompyuter oldida o'tar edi. Shunday kunlarning birida, doimgidek kompyuter bilan band edim. Shunda qandaydir ovoz tashqaridan eshitilib qoldi. Men ovoz sababini bilish uchun tashqariga chiqdim. Qaytib kelsam, kompyuter o'chib qolibdi. Uni qayta ishga tushirish uchun yoniga bordim. Shunda kompyuterdan g'alati ovozlar chiqa

boshladi va u birdan jonlanib ketdi! Qo‘rq-qanimdan sakrab tushdim. U esa kulib hammasi joyidaligini aytib, meni yoniga taklif qildi. Joyimga o‘tirgach, kompyuter menga :

– Mendan istaganingni so‘rayver! – dedi.

Avval ishonqiramay qarab turdim, keyin undan:

– Sen shuncha bilimni qayerdan olgansan? – deb so‘radim.

Kompyuter o‘ylanib turdi-da, keyin menga xotirasini ko‘rsatdi. Kompyuter xotirasini ko‘rib hayron qoldim. Uning xotirasida men o‘ylagandek chiplar emas, aksincha, bir paytlar men o‘qimasdan otib yuborgan kitoblar edi. Hayronligimdan:

– Bular nima? – deb so‘radim.

– Bular mening xotiram – dedi u ilgari sen mendan nima so‘rasang, men orqali internetga nima haqida qidiruv bersang, aynan ular menga yordam berishgan. Ammo bu degani dunyodagi barcha bilim menda degani emas. Sen bo‘lsang men bilan ovora bo‘lib, kitob o‘qishni unutib qo‘yding! Va men kitoblarga emas, ular menga

bilim berishgan. Umuman, meni yaratgan odamlar ham kitob o‘qishgan...

Shu payt yer qattiq tebrana boshladi. Qo‘rqqanimdan uyg‘onib ketdim. Qarasam, tashqarida shamol bo‘lgani uchun deraza ochilib-yopilayotgan ekan.

Ey xayriyat-ey! – dedim-da boya kompyuter aytgan gaplar haqida o‘yladim. Bu haqida uchto‘rt kun o‘ylanib yurdim va oxiri bir qarorga keldim. Anchadan beri o‘qimay qo‘ygan kitoblarni olib bir boshidan o‘qiy boshladim. Kompyuter aytgan gaplar chindan ham to‘g‘ri ekan. Kitoblar kompyuter bilganidan-da ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lar ekanlar. Keyin kun tartibimni qaytadan tuzdim va unga hech bo‘lma ganda kunda bir soat kitob mutolaa qilishni qo‘shtim. Mabodo kitob o‘qishdan zerikib kompyuterdan bema’ni narsalarga sho‘ng‘ib ketsam ichimdan qandaydir ovoz:

“Hoy unutma! Kompyuterni yaratgan insonlar ham kitob o‘qishgan”, – deydi.

Adabiy-badiiy nashr

*Hamid Olimjon va Zulfiya
nomidagi*

*Izod maktabi
o'quvchilarining ijodidan
namunalar*

Muharrir Said Ashirov

Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov

Musahih Dono To'ychiyeva

Kompyuterda sahifalovchi Umida Valijonova

Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2024-yil 12-iyunda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$, Times New Roman garniturasi.

Ofset bosma. 3,72 shartli bosma taboq. 2,8 nashr tabog'i.

Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47

Faks: (371) 241-82-69